

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
UDK: 330.3:33s5(s52)

**QILICHEV ALISHER AKRAMOVICH**

**KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH  
TIZIMINING SHAKLLANISHI VA SAMARALI FAOLIYATINI  
TA’MINLASH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:  
i.f.d., prof. B.T. Berdiyarov**

**Toshkent – 2024**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH TIZIMINI TADQIQ ETISHNING ILMY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>13</b>
1.1. Moliyaviy barqarorlik yuzasidan hozirgi zamon nazariy qarashlar va korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishga tizimli yondashuv.....	13
1.2. Korxonalar moliyaviy barqarorligi va uni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tavsifi.....	27
1.3. Moliyaviy menejment nazariyasi asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimi.....	37
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	45
<b>II BOB MOLIYAVIY MENEJMENT TIZIMIDA KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH VA BOSHQARISHNING HOZIRGI ZAMON USLUBIYOTI.....</b>	<b>47</b>
2.1. Korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash amaldagi uslubiyotlarining tanqidiy tahlili.....	47
2.2. Korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashning mukammal tizimi uslubiyotini ishlab chiqish.....	71
2.3. Korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish omillari va imkoniyatlarining regression tahlili .....	84
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	93
<b>III BOB. KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH VA BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....</b>	<b>95</b>
3.1. Korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash va samarali boshqarishga oid zamonaviy qarashlar ijobiy tavsiyalaridan foydalanish yo'llari.....	95
3.2. Korxonalar moliyaviy barqarorligi darajasi va uning ko'rsatkichlarini baholash uslubiyotini takomillashtirish.....	106
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar .....	128
<b>XULOSA .....</b>	<b>131</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>137</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahon iqtisodiyotida global moliyaviy byeqarorlikning kuchayishi sharoitida mazkur jarayonlarni tartibga solishda inflyasiyani barqaror pasaytirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. “Global iqtisodiy o‘sish 2023 va 2024-yillarda 3,0 foizgacha, 2022-yildagi taxminiy 3,5 foizdan kamayishi prognoz qilinmoqda. Xususan, Global moliya tizimi qator muammolarga duch kelganligi sababli moliyaviy barqarorlikka tavakkalchiliklar tez sur‘atlar bilan ortib bormoqda”<sup>1</sup>. Rivojlangan va izchil taraqqiy etayotgan davlatlar (Yaponiya, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqalar) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korxonalar raqobatbardoshligi hamda barqaror rivojlanishi korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirishning samarali vositalarini qo‘llashga to‘laligicha bog‘liq. Bunda tashqi muhitning ta‘siri va raqobat korxonalarini o‘zlarining moliyaviy salohiyatidan yanada samarali foydalanishga undamoqda.

Jahon iqtisodiyotida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning ahamiyati ortib borishi sharoitida iqtisodiy taraqqiyotning muvaffaqiyati va barqarorligini belgilovchi asosiy muammolarni hal etish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, uni baholash hamda takomillashtirish usullari va vositalarini ishlab chiqish, moliyaviy natijalarni tekshirish, risklarni tahlil qilish, moliyaviy boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning iqtisodiy mexanizmlarini, shuningdek, ushbu sohada siyosat va tartibga solishni ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsion rivojlanish, sarmoya jalb etish va umuman barqaror rivojlanishga erishishda korxonalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish va samarali faoliyatini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu sohada

---

<sup>1</sup> <https://www.imf.org/ru/Publications/GFSR/Issues/2023/04/11/global-financial-stability-report-april-2023>

«iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, eng avvalo, import o‘rnini bosuvchi va eksport salohiyatini oshirishni ta’minlovchi ishlab chiqarishni o‘stirishga erishish, korxonalarda korporativ boshqaruv asosida jadal rivojlantirish hisobiga ular moliyaviy salohiyatini oshirish»<sup>2</sup> bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, O‘zbekistonda korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirish masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlari maxsus, mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish, korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimida korporativ moliyaviy menejmentning zamonaviy konsepsiyalari asosida uni mukammallashtirish va samaradorligini ta’minlashning tezkor chora-tadbirlarini ishlab chiqish, korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida ichki soliq nazoratini o‘tkazish uslubiyotini ishlab chiqish, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi, global beqarorliklar sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligi tahlilini amalga oshirish, uni reyting, renking metodologiyasiga asoslangan solishtirma baholash yondashuvi asosida takomillashtirish tartibini ishlab chiqish, korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari va ulardan foydalanishdagi risklarni samarali boshqarishning moliyaviy menejment samaradorligini kompleks usulda aniqlashga asoslangan modelini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-son “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrda 775-son “Davlat

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevral, PF-4947-sonli Farmoni

ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Korporativ moliyani boshqarish mohiyatiga oid nazariy tadqiqotlar J.S.Mill, U.Senior, J.B.Sey, T.Maltus, A.Marshall, A.Smit, D.Rikardo, S.Lourens, R.K.Merton, G.M.Markovis, E.L.Nayman, Dj.Robinson, Dj.Soros, L.P.Xansen, Yu.Fama, U.F.Sharp, Dj.Shvager, K.Shvayzer, R.Shiller, E.Xeksher va boshqa iqtisodiyot fanining klassik namoyandalari tomonidan olib borilgan<sup>3</sup>.

Korxonalarda korporativ boshqaruv va korxonalar moliyaviy salohiyati masalalari J.B.Budvil, N.Grosjan, P.Krugman, A.Lyosh, B.O.Lundval, J.Mansinen, E.Mey, F.Perru, P.Romer, N.I.Berzon, I.S.Bukina, V.K.Burlachkov, I.Yu.Varyash, M.I.Gelvanovskiy, B.V.Gubin, A.S.Jegalova, A.Yu.Laykov, L.N.Likova, V.D.Milovidov, Ya.M.Mirkin, A.Yu.Mixaylov, V.K.Senchagov, V.V.Simonyan, E.Raynert, X.Richardson, Dj.Fridman, K.Frimen, P.Xagget, T.Xagerstrand, M.Porter, Y.Shumpeter va shu kabi boshqa korporativ moliyaviy menejment nazariyalari mualliflari tomonidan tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Ж.С.Милл. Теория экономического развития / Пер. с нем.: – М.: Прогресс, 2015. – 455 с.; У.Сениор. Taxe and Economic Order / F.A. Hayek. – Chicago: Univ. of Chicago Press, 1948; Ж.Б.Сей. Международное планирование налогов: Пер. с англ.-5-е изд. / Под ред. Т.Малтус – М.: Международные отношения, 2017г. – 886 с.; А.Маршалл. Geography and Taxe Trade. Cambridge: The MIT Press, 2016; А.Смит., Krugman P., Venables A.J. The Taxe Economy: Cities, Regions and International Taxe Trade. – The MIT Press, 2015. P. 384.

<sup>4</sup> Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya / Per. s nem.: – М.: Progress, 2015. – 455 с.; Hayek F.A. Taxe and Economic Order / F.A. Hayek. – Chicago: Univ. of Chicago Press, 1948; Porter M. Mejdunarodnoye planirovaniye nalogov: Per. s angl.-5-ye izd. / Pod red. V.D.Щетинина. – М.: Mejdunarodnye otnosheniya, 2017g. – 886 с.; Krugman P. Geography and Taxe Trade. Cambridge: The MIT Press, 2016; Fujita M., Krugman P., Venables A.J. The Taxe Economy: Cities, Regions and International Taxe Trade. – The MIT Press, 2015. P. 384.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirishning iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashtirish sharoitidagi xususiyatlari B.Garrett, D.Djonson, G.Jereffi, R.Kaplinski, D.Kempbell, E.Tomsett, M.Lorens, P.Maskell, S.Rezenfeld, M.Simaguti, M.Storper, E.Shmits, M.Enrayt kabi olimlarning bu masalalarga oid konsepsiyalari, nazariyalari va amaliy izlanishlarida o‘z aksini topgan<sup>5</sup>.

Ushbu mualliflarning nazariy va uslubiy yondashuvlarida korxonalar moliyaviy salohiyatining takror ishlab chiqarish jihatlarini o‘zida aks ettirgan korporativ moliyani rejalashtirish jarayonini tashkil etish hamda korxonalar moliyaviy salohiyati shakllanishining funksional asoslari kabi xususiyatlar ustunlik qiladi.

Yaqin xorijiy davlatlarda korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirish nazariyasi va tashkil etish muammolarini tadqiq qilish takror ishlab chiqarishdan zamonaviy fanga o‘tish bosqichida turibdi. Bularga misol tariqasida A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev, S.M.Drobishevskiy, V.K.Lomakin, Ya.D.Lisovolik, G.L.Azoyev, B.S.Jixarevich, R.Fatxutdinov, Yu.V.Savelev, Ye.A.Kolomak, A.Yu.Kazak, V.A.Kashin, L.P.Pavlova, R.G.Samoyev, M.V.Romanovskiy, I.G.Rusakova, T.F.Yutkina, A.S.Novoselov, S.S.Artobolevskiy, B.M.Grinchel kabi olimlarning izlanishlarini keltirish mumkin<sup>6</sup>.

---

<sup>5</sup> Б.Гарретт, “Principles of Political Economy and Taxation”, 1817, London, Library of Economics and Liberty (1999); Joseph Alois Schumpeter, Theory of Economic Development, 1934; Д.Джонсон. Стратегическое управление. М. : Экономика, 1989. - 519 с.; Г.Жереффи. Econ.(2021); Н.Ç.Bal et al. Industry 4.0 and competitiveness.Proc. Comput. Sci.(2019); Р.Каплински Consum. Serv.(2020); М.Сторпер et al. Strategic orientations, marketing proactivity and firm market performance. Ind. Market. Manag. (2020); V. Jafari-Sadeghi et al.Exploring the impact of digital transformation on technology entrepreneurship and technological market expansion: the role of technology readiness, exploration and exploitation.J. Bus. H. Chang Moon et al. A generalized double diamond approach to the global competitiveness of Korea and Singapore. Int. Д.Кемпбелл.; J. Build. Eng.(2021); М.Лоренс. Industry 4.0 and industry 5.0—inception, conception and perception. J. Manuf. Syst. (2021); А. Сапуто. Digitalization and business models: where are we going? A science map of the field.J. Bus. Res. (2021); П.Маскелл. Industrie 4.0: mit dem Internet der Dinge auf dem Weg zur 4. industriellen Revolution. VDI Nachr. (2011). <http://www.vdi-nachrichten.com/Technik-Gesellschaft/Industrie-40-Mit-Internet-Dinge-Weg-4-industriellen-Revolution>; Н. Wang, et al. A model for detecting safety hazards in key electrical sites based on hybrid attention mechanisms and lightweight Mobilenet. Energy Rep., 7 (2021), pp. 716-724.

<sup>6</sup> Гранберг А.Г. О программе фундаментальных исследований корпоративного налогового планирования. //Налоги и налогообложение, №2, 2016. с.166-178; Гаджиев Ю.А. Зарубежные теории налогового менеджмента // Финансовый менеджмент, выпуск 2-й, 2016. с.45-62; Ломакин В.К. Налоговое планирование и прогнозирование. Учебник / 5-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2017. – 671 с.; Лисоволик Я.Д. Налоги акционерных обществ: особенности и проблемы современного развития // Российский журнал, 12-января 2017 г.; Азоев Г.Л. Корпоративное налоговое планирование: анализ, стратегия и практика. –3-е изд. М.: Центр прогнозирования и анализа, 2015. – 208 с.; Жихаревич Б.С., Лимонов Л.Е., Жунда Н.Б. и др. Налоговое планирование и прогнозирование. Учебник в 2-х томах. – М.: Юрайт, 2014; Фатхудинов Р. Финансы и налоги акционерных обществ: монография. – М.: РИА Стандарты и качество, 2016. – 464 с.; Савелев Ю.В. Налоговое планирование предприятий: от теории к практике. – Петрозаводск: КарНС РАН,

O‘zbekistonda B.Yu.Xodiyev, B.B.Berkinov, I.L.Butikov, D.X.Suyunov, M.B.Xamidullin, A.A.Xoshimov, R.X.Karlibayeva, S.S.G‘ulomov, R.I.Yaushev va boshqa olimlar o‘z ilmiy ishlarida korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirish va uning milliy modeli shakllanishi bosqichlarining o‘ziga xos bo‘lgan afzallik va kamchiliklarini tavsiflashga katta e‘tibor qaratgan.

Ushbu iqtisodchi-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida korxonalar investitsion va innovatsion faoliyatini moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish hamda ular samaradorligini baholash va aniq uslubiyotini belgilashga qaratilgan yaxlit tadqiqotning olib borilmaganligi mazkur mavzuni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekistonda korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirish nazariyasi va uslubiyotini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asosini korxonalarda korporativ boshqaruv va korporativ moliyaviy menejment, korporativ moliyani rejalashtirishni tashkil etish va boshqarishning vazifalari, korxonada moliyani strategik va taktik rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish konsepsiyalari tashkil etadi. Bu esa korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirish nazariyasi va uslubiyotini chuqurroq tadqiq etish va uning uslubiy jihatlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITI-3 “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

korxonada moliyaviy barqarorligini shakllantirishning zarurligi, mohiyati va funksiyalarini tadqiq etish;

moliyaviy barqarorlik yuzasidan hozirgi zamon nazariy qarashlar va korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarishga tizimli yondashuvlarni o'rganish;

korxonada moliyaviy barqarorligi va uni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tavsifini tadqiq etish;

moliyaviy menejment nazariyasi asosida korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimini o'rganish;

korxonada moliyaviy barqarorligini baholashning amaldagi uslubiyotlarini tanqidiy tahlil qilishni tashkil etish;

korxonada moliyaviy barqarorligini baholashning mukammal tizimi uslubiyotini ishlab chiqish;

korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish omillari va imkoniyatlarini regression tahlil qilish;

korxonada moliyaviy barqarorligini baholash va samarali boshqarishga oid zamonaviy qarashlar ijobiy tavsiyalaridan foydalanish yo'llarini tadqiq etish;

korxonada moliyaviy barqarorligi darajasi va uning ko'rsatkichlarini baholash uslubiyotini takomillashtirish yo'llarini o'rganish;

korxonada moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar kompleksini ishlab chiqish;

korxonalar innovatsion taraqqiyoti va rivojlanishning yangi moliyaviy imkoniyatlarini ta'minlashda moliyaviy rejalashtirish amaliyoti samaradorligi ta'sirchanligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "O'z kimyosanoat" AJ korxonalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib korxonada moliyaviy barqarorligini shakllantirishga oid iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy izlanish jarayonida tadqiqot olib borishning guruhlash, tizimli qiyosiy taxlil va tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik modellar, korrelyatsion, regression, ekspert va taqqoslama tahlili, bashoratlash,



ma'lumotlarning statistik ishlanmasi, guruhlash metodlari va boshqa zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxonalar moliyaviy barqarorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni xo'jalik subyektining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi nobarqaror muhit ta'siriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham o'zining to'lovga layoqatliligini saqlay olishga qaratilgan qobiliyat nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

korxonalar balansining likvidligini monitoring qilish algoritmi klassik likvidlikni tahlil qilish natijalari orqali aniqlanuvchi tengsizlik, aniqlangan likvidlik tahlilini qo'llash hamda kelgusi davrda balans likvidligini saqlash tendensiyasi baholashga asoslangan uch bosqichli jarayon asosida takomillashtirilgan;

"O'z kimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar moliyasini samarali boshqarishga yo'naltirilgan ichki nazoratning maxsus bo'limi sifatida korporativ soliq xizmatini joriy etish orqali korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirishni ta'minlash taklifi asoslangan;

"O'z kimyosanoat" AJ tizimidagi "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ faoliyatiga jalb etiladigan investitsiyalar, kreditorlik qarzlari, umumiy daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2026-yilga qadar sof foyda hajmining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

iqtisodiyot taraqqiyotida korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va korxonalar moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishga asoslangan maxsus modeli orqali korporativ moliya menejmenti samaradorligini takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilgan;

korxonalar moliyaviy barqarorligini shakllantirish va korxonalar moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlariga oid samarali korporativ moliyaviy barqarorligi Konsepsiyasi (SKMSK) taklif qilingan;

korxonada moliyaviy barqarorligining samaradorligini baholash uslubiyoti taklif etilgan;

korxonada moliyasini rejalashtirishning korporativ moliyaviy menejmentga ta'sirini baholash, prognoz qilish va ularning uzoq va qisqa muddatli bog'liqlikda amal qilish imkoniyatlarini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi, tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar davomida olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalardan korxonada moliyaviy barqarorligini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va korxonada moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan innovatsion loyihalarni, maqsadli rivojlantirish dasturlari va ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlash va korxonada moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan strategiyalar va davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda, mavjud moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish yo'llarini aniqlashda, tizimli monitoringni amalga oshirishda, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hamda oliy ta'lim muassasalarida "Korporativ moliya", "Moliyaviy menejment" kabi maxsus fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxonada moliyaviy barqarorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini xo'jalik subyektining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi nobarqaror muhit ta'siriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham o'zining to'lovga layoqatliligini saqlay olishga qaratilgan qobiliyat nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan ("Moliya asoslari" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-sonli buyrug'i). Mazkur taklifning amaliyotiga joriy etilishi natijasida talabalarda xo'jalik subyektining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirishga qaratilgan qobiliyat nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "korxonada moliyaviy barqarorligi" tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

korxonada balansining likvidligini monitoring qilish algoritmi klassik likvidlikni tahlil qilish natijalari orqali aniqlanuvchi tengsizlik, aniqlangan likvidlik tahlilini qo'llash hamda kelgusi davrda balans likvidligini saqlash tendensiyasi baholashga asoslangan uch bosqichli jarayon asosida takomillashtirish taklifi "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan ("O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 4-apreldagi № 19-1-934-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotiga joriy etilishi natijasida "korxonada byudjetining mukammallashtirilishi" orqali tegishli loyihalar bo'yicha harajatlarni samarali boshqarish, majburiyatlarni vaqtida to'liq ijro etish va daromadlardan samarali foydalanish hisobiga "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ 3-sho'ba korxonasi ixtiyorida qoladigan sof foyda miqdori 2022-yilda 2020-yildagiga nisbatan 1,29 martaga o'sishiga erishilgan va buning asosida korxonada moliyaviy barqarorligi oshishi ta'minlangan;

"O'z kimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar moliyasini samarali boshqarishga yo'naltirilgan ichki nazoratning maxsus bo'limi sifatida korporativ soliq xizmatini

joriy etish orqali korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirishni ta'minlash taklifi "O'zkimyosanoat" AJ korxonalarida foyda solig'i bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanilgan ("O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 4-apreldagi № 19-1-934-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ishlab chiqilgan uslubiyotni "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ3-sho'ba korxonasi faoliyatida qo'llash foyda solig'iga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash asosida soliq xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratgan;

"O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ faoliyatiga jalb etiladigan investitsiyalar, kreditorlik qarzlari, umumiy daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan sof foyda hajmining prognoz ko'rsatkichlari "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan ("O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 4-apreldagi № 19-1-934-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotiga joriy etilishi natijasida "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ faoliyati asosida 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan sof foyda hajmining prognoz ko'rsatkichlari yordamida korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy parametrlari o'rtasidagi muvofiqlik shartlarini aniqlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallardan 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika hamda 2 tasi nufuzli xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

## **I BOB. KORXONA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH TIZIMINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Moliyaviy barqarorlik yuzasidan hozirgi zamon nazariy qarashlar va korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishga tizimli yondashuv**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning va uni oshirib borishning shunday modeli yaratilishi lozimki, u nafaqat korxonalar moliyasini sog‘lomlashtirishni va uning asoslarini mustahkamlashni, balki shu bilan birga istiqbolda korxonaning raqobat ustunliklarini mustahkamlashni hamda uning bozor qiymatini ham oshirishni ta’minlasin.

Dissertatsion tadqiqotimiz birinchi bobi korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Ushbu maqsadda ishning mazkur bobida quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi:

- moliyaviy barqarorlik yuzasidan hozirgi zamon nazariy qarashlar va korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishga tizimli yondashuv;
- korxonalar moliyaviy barqarorligi va uni boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tavsifi;
- moliyaviy menejment nazariyasi asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimi.

Moliyaviy barqarorlik yuzasidan hozirgi zamon nazariy qarashlar va korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishga tizimli yondashuv xususiyatlarini yoritish uchun izlanishda ma’lum mantiqiy ketma-ketlikka rioya etishni lozim topdik: dastlab korxonalar moliyasining mohiyati, tarkibini tasniflash mezonlari nazariy talqin etiladi, so‘ngra mamlakatimizda telekommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish tendensiyalari o‘rganiladi va iqtisodiy sistemologiya qoidalariga asoslanib “korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish”ni tizimli tarzda ilmiy idrok etishning asoslari yoritiladi, uning zaruriy elementlari ilmiy-metodologik sharhi beriladi.

Iqtisodiyot modernizatsiyasi sharoitidagi sog‘lom raqobat muhitida turli

mulk va xo‘jalik yuritish shakllarining keng taraqqiyoti ular moliyasini ishlab chiqarish samaradorligini rag‘batlantirish maqsadlarida samarali boshqarishning muhim, dolzarb muammo ekanligini isbotlamoqda.

Korxonalar moliyaviy faoliyatini tashkil etishning umumnazariy masalalari qator iqtisodchi olimlar, jumladan M.Yu.Alekseyev, B.I.Alyoxin, A.Allaxverdyan, I.T.Balabanov, V.I.Bukato, M.V.Grachev, J.R.Zaynalov, M.V.Romanovskiy, O.O.Olimjonov, T.S.Malikov, D.S.Molyakov, R.G.Mannapov, Q.Yaxyoyev, H.Sobirov, S.Elmirzayev, B.Toshmurodova, va boshqalar ishlarida ko‘rib o‘tilgan. Shunga qaramay, korxonalar moliyaviy mexanizmini tashkil etishga oid sobiq ittifoq davridagi ko‘pchilik qarashlar hozirgi zamon bozor munosabatlari sharoitida jiddiy aniqlashtirishni, to‘ldirishni va ayrim holatlarda esa yangi tarixiy haqiqat nuqtai-nazaridan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Mazkur jarayon korxonalarda moliyaviy rejalashtirish usullarini umumlashtirishni, to‘ldirishni va yagona kompleksga keltirishni, moliyaviy rejalashtirish jarayonida rioya etilishi lozim bo‘lgan tamoyillarni tizimlashtirishni talab etadi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarni rejalashtirish muayyan usullar yordamida amalga oshiriladi.

*Moliyaviy rejalashtirish usullari* - bu ko‘rsatkichlarni hisoblashning o‘ziga xos usullari va yo‘llari.

**Moliyaviy ko‘rsatkichlarni rejalashtirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:** normativ, hisob-kitob va analitik, balans, rejalashtirilgan qarorlarni optimallashtirish usuli, iqtisodiy va matematik modellashtirish.

**Normativ usul.** Moliyaviy ko‘rsatkichlarni rejalashtirishning me‘yoriy usulining mohiyati shundan iboratki, oldindan belgilangan me‘yorlar va texnik-iqtisodiy me‘yorlar asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarga va ularning manbalariga bo‘lgan ehtiyoji hisoblab chiqiladi. Bunday standartlar soliq stavkalari, tarif badallari va yig‘imlari stavkalari, amortizatsiya stavkalari, aylanma mablag‘larga bo‘lgan talablar va boshqalardir.

**Hisob-analitik usuli.** Moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisoblash va rejalashtirishning analitik usulining mohiyati shundan iboratki, moliyaviy

ko'rsatkichning erishilgan qiymatini tahlil qilish asosida baza sifatida qabul qilingan va uning rejalashtirish davridagi o'zgarish ko'rsatkichlari rejalashtirilgan bu ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu rejalashtirish usuli texnik va iqtisodiy standartlar mavjud bo'lmagan hollarda keng qo'llaniladi va ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlar ularning dinamikasi va munosabatlarini tahlil qilish asosida bilvosita o'rnatilishi mumkin.

**Balans usuli.** Moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirishning balans usulining mohiyati shundan iboratki, balanslarni yaratish orqali mavjud moliyaviy resurslar va ularga bo'lgan haqiqiy ehtiyoj o'rtasidagi bog'liqlikka erishiladi. Balans usuli, birinchi navbatda, foyda va boshqa moliyaviy resurslarni taqsimlashni rejalashtirishda, moliya fondlariga – jamg'arish fondiga, iste'mol fondiga va boshqalarga mablag'larning tushumlariga bo'lgan ehtiyojni rejalashtirishda qo'llaniladi.

**Rejalashtirilgan qarorlarni optimallashtirish usuli.** Rejalashtirilgan qarorlarni optimallashtirish usulining mohiyati ulardan eng maqbulini tanlash uchun rejalashtirilgan hisob-kitoblarning bir nechta variantlarini ishlab chiqishdan iborat. Bunday holda, turli xil tanlov mezonlari qo'llanilishi mumkin:

- berilgan xarajatlarning minimal miqdori;
- berilgan foydaning maksimal miqdori;
- natijaning eng yuqori samaradorligi bilan kapitalni minimal qo'yish;
- minimal operatsion xarajatlar;
- kapital aylanmasi uchun minimal vaqt, ya'ni mablag'lar aylanmasini tezlashtirish;
- investitsiya qilingan kapitalning bir rubliga maksimal daromad;
- investitsiya qilingan kapitalning bir rubliga maksimal foyda;
- moliyaviy resurslarning maksimal xavfsizligi, ya'ni minimal moliyaviy yo'qotishlar (moliyaviy yoki valyuta riski).

**Iqtisodiy va matematik modellashtirish.** Moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirishda iqtisodiy-matematik modellashtirishning mohiyati shundan iboratki, u moliyaviy ko'rsatkichlar va ularni belgilovchi omillar o'rtasidagi

bogʻliqlikning miqdoriy ifodasini topish imkonini beradi. Bu munosabat iqtisodiy va matematik model orqali ifodalanadi. Iqtisodiy-matematik model iqtisodiy jarayonning aniq matematik tavsifi, yaʼni matematik belgilar va usullar (tenglamalar, tengsizliklar, jadvallar, grafiklar va boshqalar) yordamida maʼlum bir iqtisodiy hodisaning tuzilishi va oʻzgarish qonuniyatlarini tavsiflovchi omillarni tavsiflash.

**Korxonada moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- faoliyatning barcha turlarini zarur moliyaviy resurslar bilan taʼminlash;
- kapitalni samarali qoʻyish yoʻnalishlarini belgilash;
- korxonada daromadini oshirish uchun xoʻjalik ichidagi zaxiralarni aniqlash;
- aksiyadorlar va investorlar manfaatlariga rioya qilish;
- byudjet, byudjetdan tashqari jamgʻarmalar, kredit, sugʻurta tashkilotlari va korxonada xodimlari bilan oqilona moliyaviy munosabatlarni oʻrnatish;
- korxonaning moliyaviy holatini, rejalashtirilgan xoʻjalik operatsiyalarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini nazorat qilish.

*Moliyaviy rejalashtirish* moliyani tashkil etishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadigan, lekin oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan muayyan tamoyillarga asoslanadi.

*Birlik prinsipi* rejalashtirishning tizimli boʻlishi kerakligini anglatadi, yaʼni umumiy maqsad yoʻlida yagona yoʻnalishda rivojlanayotgan oʻzaro bogʻliq elementlar toʻplami boʻlishi.

*Muvofiqlashtirish prinsipi* shundan iboratki, korxonaning bir boʻlinmasining samarali faoliyatini boshqalar bilan bogʻlamasdan rejalashtirish mumkin emas. Bir tarkibiy boʻlinmaning rejalaridagi har qanday oʻzgarishlar boshqalarning rejalarida aks ettirilishi kerak.

*Oʻzaro bogʻliqlik va sinxronlik* rejalashtirishni muvofiqlashtirishning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

*Davomiylilik tamoyili* shundan iboratki, rejalashtirish belgilangan sikl doirasida tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Ishlab chiqilgan rejalar doimiy ravishda



bir-birini almashtirishi kerak (logistika rejasi – ishlab chiqarish rejasi – marketing rejasi). Tashqi va ichki muhitning noaniqligi sharoitida rejalarni tuzatish va aniqlashtirish zarur.

*Moslashuvchanlik prinsipi* – bu kutilmagan holatlarga qarab rejalarni o'zgartirish qobiliyati. Rejalarning moslashuvchanligi xavfsizlik zaxiralari (qo'shimcha moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va boshqalar) bilan ta'minlanadi.

*Aniqlik prinsipi* korxonaning moliyaviy rejaları korxonaga faoliyatining ichki va tashqi sharoitlari imkon beradigan darajada aniq va batafsil bo'lishi kerakligini anglatadi.

**Ushbu umumiy tamoyillar moliyaviy rejalashtirishning o'ziga xos tamoyillari bilan to'ldiriladi.** Bularga quyidagilar kiradi:

- *pul mablag'larini olish va ulardan foydalanish shartlari o'rtasidagi bog'liqlik prinsipi*. Bu shuni anglatadiki, uzoq muddatli o'z mablag'lari va o'z manbalari hisobidan uzoq muddatli o'zini o'zi qoplash muddatiga ega kapital qo'yimlarni moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir;

- *to'lov qobiliyati prinsipi* – moliyaviy rejalashtirish korxonaning to'lov qobiliyatini ta'minlashi kerak, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlarni to'lash uchun zarur bo'lgan likvid aktivlarning mavjudligi;

- *rentabellik prinsipi* – kapital qo'yimlarni moliyalashtirish uchun, agar ular o'z kapitalining rentabelligini oshirsa va moliyaviy leverage samarasini ta'minlasa, kredit va qarzlarni jalb qilishning eng foydali usullarini tanlash kerak;

- *tavakkalchiliklarni muvozanatlash tamoyili* – o'z mablag'lari (sof foyda, amortizatsiya) hisobidan riski yuqori bo'lgan uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan bugungi globallashtirish va demokratik bozor islohotlari sharoitida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni baholashga qaratilgan masalalar tizimli holda yoritib berilmagan.

Korxonaga to'g'risida tushuncha hosil qilish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Ko'pgina adabiyotlarda korxonaga to'g'risida turlicha fikrlar keltirilgan. Masalan, R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripovlarning "Korxonaga iqtisodiyoti" darsligida korxonaga quyidagicha ta'rif berilgan. Korxonaga – ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot subyektidir<sup>7</sup>.

I.O.Ulashev, Sh.A.Atamuradovlarning "Korxonaga iqtisodiyoti va menejmenti" o'quv qo'llanmasida esa korxonaga quyidagicha ta'rif berilgan. Korxonaga – bu jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanuvchi, aholining talabini qondirish va foyda olish yoki boshqa ijtimoiy funksiyalarni bajarish maqsadida, xususiy resurslardan foydalanish asosida mahsulotlar ishlab chiqaradigan, ayriboshlaydigan, hamda boshqa ishlarni va xizmatlarni bajaradigan, faoliyati bo'yicha qarorlar qabul qiladigan va unga javobgar, huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan, har xil o'lchamdagi xo'jalik yurituvchi subyektdir<sup>8</sup>. Bizning fikrimizcha, huquqiy shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayriboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini ro'yobga chiqaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt korxonaga hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonaga o'zining faoliyati davomida davlat, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarda bo'ladi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida o'zining katta hissasini qo'shadi.

Hozirgi paytda korxonani rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni uzluksiz ravishda joriy etilishi bilangina erishish mumkin. M.Porter kompaniyalarning raqobatli ustunlikka erishishlarida innovatsiyaning rolini quyidagicha aniqlagan: "...kompaniyaga raqobatdagi ustunlikni innovatsiyalar vositasida qo'lga kiritadi.

---

<sup>7</sup> Muratov R.S., Djalolova I.A., Oripov S.Sh. Korxonaga iqtisodiyoti. Darslik. –Toshkent, 2014. - 35-b.

<sup>8</sup> Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxonaga iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. Toshkent. -2013, 24-b.

Ular yangi kiritilgan tartib-qoidalarga ham yangi texnologiyalardan, ham yangi ish usullaridan keng ma'noda foydalangan holda yondashdilar. Kompaniya yangiliklar tufayli raqobatdagi ustunliklarga erishganidan keyin, bu ustunliklarni faqat muntazam ravishdagi yaxshilashlar yordamida qo'lda tutib turishi mumkin. Raqobatchilar innovatsiyalarni takomillashtirish va joriy etishdan to'xtagan har qanday kompaniyani darhol va albatta chetlab o'tib ketadilar"<sup>9</sup>.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish ilmiy tadqiqotning muhim vazifasidir. Ushbu tahlil korxonalarining moliyaviy barqarorligiga erishishga qanday omillar va sharoitlar yordam berishini yoki to'sqinlik qilishini aniqlash imkonini beradi.

### 1.1-jadval

#### Korxonalar faoliyatining barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili<sup>10</sup>

Omillar	Omillar ta'siri natijalari
Bilim va ko'nikma	Ishlab chiqarish korxonalarida aynan boshqaruv (bozor iqtisodiyoti qonunlari) bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yetishmasligi innovatsion boshqaruvni joriy qilishga to'sqinlik qiladi.
Markazlashish darajasi	Markazlashuv darajasining yuqoriligi quyi pog'ona boshqaruvchilarini ijodiy fikrlash va boshqaruvda ijodiy yondashish imkoniyatini cheklaydi.
Kommunikatsiya tizimi	Kommunikatsiya tizimini yaxshi tashkil qilinmaganligi yoki boshqaruvchini ulardan samarali foydalana olmasligi axborot va yangiliklarni ayrim hollarda o'z vaqtida yetkazish muammosini keltirib chiqarmoqda.
Shartnoma munosabatlari	Boshqaruvchi va xodim belgilangan vazifalarni aniq bilmasligi va ularga amal qilinmasligi boshqaruv jarayonini rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda.
Innovatsiyalarga bo'lgan qiziqish	Boshqaruvchilar tomonidan innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishning pastligi ya'ni boshqaruvdagi egiluvchanlik qobiliyatining kamligi.
Rag'batlantirish	Boshqaruvda rag'batlantirish tizimini mukammal ishlab chiqilmaganligi innovatsion boshqaruvni joriy qilishga qiziqishni pasaytiradi.

Moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bu samarali moliyaviy boshqaruvdir. Bu moliyaviy resurslarni to'g'ri taqsimlash va ulardan foydalanish, xarajatlar va daromadlarni nazorat qilish, kelajakdagi moliyaviy oqimlarni bashorat qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

<sup>9</sup> Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ./ Под ред. В.Д.Щетинина. – М.Международные отношения, 1993. – 64 с.

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi.

Yana bir muhim omil - yetarli kapitalning mavjudligi va undan to'g'ri foydalanish. Kapitali kam bo'lgan kompaniyalar qarzni to'lash, ish haqini to'lash va o'sishga sarmoya kiritishda muammolarga duch kelishi mumkin. Kapitaldan to'g'ri foydalanish, shuningdek, eng samarali investitsiyalar va rivojlanish strategiyalarini tanlashni o'z ichiga oladi.

Yana bir muhim omil - bu xavf. Xatarlarni samarali boshqarishga qodir bo'lgan korxonalar noaniqlik va o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyat sharoitida moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish uchun ko'proq imkoniyatga ega. Xatarlarni tahlil qilish va risklarni boshqarish strategiyalari va vositalarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, soliq siyosati, bozor raqobati va boshqalar kabi tashqi omillarni ham hisobga olish kerak. Bu omillarning barchasi korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Umuman olganda, korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish ular duch keladigan asosiy muammo va muammolarni aniqlash, shuningdek, ularning barqarorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu nafaqat alohida korxonalar, balki butun iqtisodiyot uchun ham muhimdir.

## 1.2-jadval

### Korxonalar rivojlanishining SWOT tahlili<sup>11</sup>

<b>Kuchli tomonlari</b>	<b>Kuchsiz tomonlari</b>
Korxonalarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilganligi	Korxonalarda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish bo'yicha kadrlar yetishmasligi
Korxonalariga berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar	Mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda infratuzilmalar yetishmasligi
Korxonalarda eksport qilish imkoniyatlarining yuqoriligi	Mahsulotlarni sotish va saqlashdagi muammolarning mavjudligi
<b>Imkoniyatlari</b>	<b>Xavf-xatar yoki tahdidlari</b>
Korxonalarda mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalash imkoniyatlari	Ichki va tashqi bozorlarda narx navoning o'zgarishi
Korxonalariga berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar va imtiyozlar	Jahon bozorida raqobatning kuchayishi
Xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyati	Davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat o'zgarishi

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi

Respublikamiz korxonalarini barqaror rivojlanishi va boshqarishni o‘ziga xos jihatlari amaliyotda keng foydalanib kelinayotgan SWOT tahlil asosida baholanadi (1.2-jadval).

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini SWOT tahlili kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash imkonini beradi.

**Kuchli tomonlari:**

- yetarli kapitalning mavjudligi va undan samarali foydalanish;
- samarali moliyaviy boshqaruv;
- korxonaning yuqori rentabelligi va likvidligi;
- risklarni boshqarish uchun zaxiralar va moliyaviy vositalarning mavjudligi;
- barqaror moliyaviy ko‘rsatkichlar va bozorda yaxshi imdj.

**Zaif tomonlari:**

- kapitalning yetarli emasligi va undan noto‘g‘ri foydalanish;
- korxonaning yetarli darajada rentabelligi va likvidligi;
- moliyaviy boshqaruv va xarajatlarni nazorat qilishning yetarli emasligi;
- past moliyaviy barqarorlik va xavf-xatarlarga nisbatan zaiflik;
- kutilmagan vaziyatlar uchun moliyaviy zaxiralarning yetishmasligi.

**Imkoniyatlar:**

- bozorni kengaytirish va sotish hajmini oshirish;
- resurslar samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish;
- yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish;
- qo‘shimcha kapital va investitsiyalarni jalb qilish;
- moliyaviy siyosat va rivojlanish strategiyasini takomillashtirish.

**Tahdidlar:**

- iqtisodiy inqirozlar va bozor beqarorligi;
- bozorda raqobat kuchayishi va narxlarning pasayishi;
- soliq siyosati va qonunchilikdagi o‘zgarishlar;
- foiz stavkalarining oshishi va kredit olishdagi qiyinchiliklar;
- tabiiy ofatlar yoki siyosiy mojarolar kabi tashqi omillarning salbiy ta’siri.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini SWOT tahlili korxonaga duch kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolar va muammolarni aniqlashga, shuningdek moliyaviy barqarorlikni yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Ushbu tahlil asosida moliyaviy barqarorlikni yaxshilash va risklarni minimallashtirish uchun strategiya va chora-tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, innovatsion rivojlanish va kommunikatsion texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari shunday hal etilishi lozimki, buning natijasida ular rivojlanish dasturidagi aniq tadbirga qilingan xarajat birligiga yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi kuchli dastakka ega bo'ladilar.

Bularning hammasi innovatsion rivojlanish va kommunikatsion texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishning samarali vositalari va dastaklarini keng joriy etish va takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish korxonalar moliyasi xususiyatlarini tizimli tarzda o'rganishni va hisobga olishni hamda ushbu muammoni kompleks tarzda hal etishni talab qiladi.

Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni oshirishga kompleks holda yondashuvning zarurligi korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan hamda innovatsion rivojlanish va kommunikatsion texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida iqtisodiyot mazkur tarmog'i taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha hukumat dasturi mazmunidan kelib chiqadi.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga kompleks yondashuv quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: Korxonaning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan moliyaviy natijalar, boshqaruv qobiliyatlari, mavjud resurslar va boshqa omillarni o'rganish kerak. Moliyaviy barqarorlikni yaxshilash imkoniyatlarini baholash. Korxonaning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish asosida bozorni kengaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yoki qo'shimcha kapitalni jalb qilish kabi o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

Tahdid va xavflarni baholash. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi omillarni, masalan, iqtisodiy inqirozlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar yoki bozordagi raqobatni o'rganish kerak.

O'zbekistonda so'nggi yillarda korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, korporativ moliyaviy menejment samarali usullarini qo'llash, korxonalar mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan korporativ nazorat o'rnatish va uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash davlat barqarorligi darajasidagi muhim masalalardan biriga aylandi.


Ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya qoidalari asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, maqsadi, vazifalari, ko'rsatkichlari, asosiy jarayonlari va omillari guruhlarini ko'rib chiqish asosida korxonalar moliyaviy barqarorligi mazmunining yangicha talqinini berishimiz mumkin: *“Korxonalar moliyaviy barqarorligi – bu xo'jalik subyektining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi nobarqaror muhit ta'siriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham o'zining to'lovga layoqatliligini saqlay olishga qaratilgan qobiliyatidir”*.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish mazmunini iqtisodiy sistemologiya qoidalari asosida o'rganish uni bir vaqtning o'zida uch darajadagi tizimli munosabat ishtirokchilari sifatida qarashni talab etadi ( 1.1.1- rasm).

**Korxonada moliyaviy barqarorligi global moliya tizimining elementi sifatida uning rivojlanish qonuniyatlariga va xalqaro darajadagi tartibga solish shartlariga bo'ysunadi**

**Davlatning korporativ moliyani boshqarish dastaklari orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga oid tadbirlarni ishlab chiqishdagi faoliyati**

**Korxonada moliyaviy barqarorligining samarali tadbirlari amal qilishi**



**1.1.1-rasm. Korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarish mazmunini tizimli tushunish va tadqiq etish<sup>12</sup>**

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi



*Korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarishga yangicha yondoshuv* shunda namoyon bo'ladiki, unda O'zbekiston Respublikasi rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashtirish sharoitidagi yangi moliya barqarorligi doirasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb vazifalarini hisobga olgan holda korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlashning zamonaviy tendensiyalarini tizimli tarzda tadqiq etish asosiy masala qilib qo'yiladi va uning diqqat markazida "korxonada moliyaviy barqarorligi", "korporativ moliyaviy menejment samarali yo'nalishlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash omillari va vositalari", "iqtisodiyot ochiqligi va biznes muhiti" kabi hayotiy belgilovchi omillar mutanosibliklarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda uyg'unlashtirish orqali uning takomillashgan mexanizmini ishlab chiqish yotadi.

*Korxonada moliyaviy barqarorligini boshqarishga yangicha yondoshuv vazifalari* sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

-tizimli yondoshuv asosida "korxonada moliyaviy barqarorligi", "korporativ moliyaviy menejment samarali yo'nalishlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash omillari va vositalari" tushunchalarining yangicha talqinini berish va unda korxonada moliyaviy barqarorligining ular iqtisodiy o'sishiga ta'siri samaralarini baholash va tahlil qilish masalalarini ham qamrab oluvchi takomillashgan terminologik apparatini ishlab chiqish;

-O'zbekiston Respublikasida korporativ moliyani tashkil etishning zamonaviy tendensiyalarini o'rganishga yangicha yondashish zarurligini belgilovchi omillarni ilmiy tahlil qilish va ularni samarali boshqarish tadbirlarini asoslab berish;

- korxonada moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini aniqlashning amaldagi uslubiyoti taxlil asosida korporativ moliya xizmati samarali faoliyati kabi omillar bilan belgilanuvchi imkoniyatlardan samarali foydalanishni aniqlash maqsadida korxonada moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri samaralarini rag'batlantirishda korporativ moliyaning omilli va natijaviy jihatlarni hisobga olgan holda baholash uslubiyotini ishlab chiqish;

- korxonalar moliyasi holati, soliq, byudjet, iqtisodiy o‘shish, modernizatsiya va diversifikatsiya darajasi, ishbilarmonlik muhiti, iqtisodiyotning ochiqqligini kompleks hisobga oluvchi koeffitsiyentlar bilan ayrim holda baholash va omillarni tizimli tadqiq qilish orqali korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berish;

- davlatning byudjet-soliq, investitsion salohiyatlari va innovatsion rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqib, korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlashning zamonaviy tendensiyalari va ustuvor omillarini aniqlash imkonini beruvchi korporativ moliyaning rivojlanish istiqbollari va korporativ moliyaviy menejment samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish;

- korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlashning zamonaviy tendensiyalari borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish istiqbollarini ilmiy asoslab berish;

-turli omillarning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxemasi asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlashning zamonaviy tendensiyalarini takomillashtirishning o‘rta va uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish.

Umuman, korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimini tadqiq etish ko‘proq uning korporativ moliya nuqtai-nazaridan moliyaviy asoslar tahlili bilangina chegaralanib qoldi, ushbu masalalarning moliyaviy menejment tamoyillari asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishdagi ahamiyati masalalari tadqiq etilmagan. Shu munosabat bilan tadqiqotimizning keyingi paragrafi aynan korxonalar moliyaviy barqarorligi va uni boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tavsifini o‘rganishga bag‘ishlangan.

## **1.2. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va uni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tavsifi**

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning boshqaruv samaradorligiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarga bog'liq. Birinchidan, Moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish: Moliyaviy reja va byudjetni to'g'ri tuzish va amalga oshirish korxonaning maqsadlarini aniqlashga, resurslarni taqsimlashga va vazifalarning bajarilishini nazorat qilishga yordam beradi. Bu moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim vositadir. Ikkinchidan, aylanma mablag'larni boshqarish: inventar, debitorlik va kreditorlik qarzlari kabi aylanma mablag'larni samarali boshqarish korxonaning resurslaridan foydalanishni optimallashtirishga yordam beradi. Aylanma mablag'larning etishmasligi yoki ortiqcha bo'lishi likvidlik va moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, moliyaviy tahlil: Muntazam moliyaviy tahlil korxonaning joriy holatini, uning daromad va xarajatlarini, rentabelligini, likvidligini va boshqa asosiy ko'rsatkichlarini baholash imkonini beradi. Bu muammoli joylarni aniqlashga va moliyaviy barqarorlikni yaxshilash choralari ko'rishga yordam beradi. To'rtinchidan, qarzni boshqarish: korxonaning qarzini optimal boshqarish moliyaviy risklarni kamaytirish va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Foizlarni ortiqcha to'lamaslik yoki joriy operatsiyalarni moliyalashtirish uchun mablag'larning yetarli bo'lmasligi uchun qarz mablag'laridan foydalanishni to'g'ri muvozanatlash kerak. Beshinchidan, moliyaviy vositalar va strategiyalar: investitsiyalar, sug'urta, derivativlar va boshqalar kabi turli moliyaviy vositalardan foydalanish biznesga o'zini xavf-xatarlardan himoya qilish va rentabellikni oshirishga yordam beradi. Bozor va raqobat tahliliga asoslangan samarali moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish ham moliyaviy barqarorlikka erishishga yordam beradi. Oltinchidan, inson resurslari: Moliyaviy menejment sohasidagi malakali kadrlar korxonaning moliyaviy barqarorligini boshqarish samaradorligida muhim rol o'ynaydi. Tahlil qila oladigan va to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qila oladigan malakali mutaxassislariga ega bo'lish korxonaning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Umuman olganda, korxonaning moliyaviy barqarorligini muvaffaqiyatli boshqarish ushbu va boshqa omillarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu uzoq muddatda barqarorlik va biznes o‘shiga erishish imkonini beradi.

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotda moliyaviy barqarorlik mazmunini tushunishning turlicha yondoshuvlari va variantlari uchraydi. Jumladan, I.A.Pavlova fikricha, korxonaning moliyaviy barqarorligining mohiyati “uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta‘minlashga imkon beradi”<sup>13</sup>.

I.N. Omelchenko va Ye.V. Borisovalar fikricha, “ moliyaviy barqarorlik – doimiy tarzda bozor konyunkturasi o‘zgarib borishi sharoitida korxonaning o‘z moliyaviy stabiligini saqlab qolish qobiliyatidir”<sup>14</sup>.

L.T. Gilyarovskaya va A.A. Vexorevalar ta‘kidlashicha, “korxonaning moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to‘lovga layoqatlilik ta‘minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o‘shiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi”<sup>15</sup>.

E.V. Isayeva qarashicha, “korxonaning moliyaviy barqarorligi – bu moliyaviy holatning ilgarigidan ko‘ra yaxshilangan holatdagi o‘sh borishidir”<sup>16</sup>.

O.R.Kriviskaya fikricha, “moliyaviy barqarorlik korxonaning kelgusi rivoji uchun ahamiyatli bo‘lgan iqtisodiy mustaqillikning garovi bo‘lmish yetarli darajadagi foyda hajmining mavjudligidir”<sup>17</sup>.

Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishda iqtisodchi olim, professor E.A.Akramov<sup>18</sup> “moliyaviy mustahkamlik” tushunchasi va uning ko‘rsatkichlarini tavsiya etgan va unga ta‘sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u

---

<sup>13</sup> “Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя”. И.А. Павлова// Финансы и кредит, 2017г., 23 (июн), с. 71-75.

<sup>14</sup> Омелченко И.И. Финансово-экономическая стабильность как составная часть организационно-экономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. № 4. С. 65.

<sup>15</sup> Гиляровская Л.Т., Вехорева А.А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. СПб., 2013. С. 13.

<sup>16</sup>Исаева Э.В. Проблемы определения сущности понятия “финансовая устойчивость предприятия” // Проблемы экономики. 2018. № 2. С. 80.

<sup>17</sup> Кривиска О.Р. Планування прибутку підприємства при визначенні стратегічного розвитку // Фінанси України. 2015. № 3. С. 138.

<sup>18</sup> . Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. - T.: Moliya, 2003. –B. 64-85.

moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'rsatkich ekanligini ta'kidlaydi.

Professor T.S.Malikovning fikriga ko'ra<sup>19</sup>, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuv koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko'rsatkichlar (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, taklif etilayotgan moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlarning xilma-xilligi, ularni hisoblab chiqishning turli algoritmlari, mezonlari, hozirgacha korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning yagona uslubiyati ishlab chiqilmagan, degan xulosaga kelish mumkin.

Iqtisodchi olimlar M.Q.Pardayev va B.I.Isroilov<sup>20</sup> moliyaviy barqarorlikni korxonada o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbati sifatida ifodalab, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga ajratadilar:

- o'z mablag'lar (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- chetdan jalb etilgan mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

A.M.Ajluni<sup>21</sup> moliyaviy barqarorlikning barcha koeffitsiyentlarini aylanma va asosiy vositalarning holatini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar guruhiga bo'ladi.

Boshqa mualliflar moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarini umumiy ko'rsatgan holda, ularni tasniflamaydi. Jumladan, V.I.Romanchin va

---

<sup>19</sup> Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. Uquv qo'llanma / i.f.d., prof. A.V. Vahobovning umumiy tahriri ostida. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009. –B. 254-257.

<sup>20</sup> Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi). - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. – B. 197.

<sup>21</sup> Ajluni A.M. Стратегия развития промышленности России на пороге XXI века. -Орел: ОРАГС, 1998. - 125с.

I.V.Skoblyakova<sup>22</sup> moliyaviy barqarorlikka sarmoya tarkibi ko'rsatkichlari; aylanma va asosiy sarmoyalar holatining ko'rsatkichlari; kreditlar bo'yicha foizlar to'lash qobiliyati va moliyaviy barqarorlik zaxirasini tavsiflaydi, deb hisoblaganlar.

Ushbu masalaga nisbatan D.Bell o'zini-o'zi moliyalash koeffitsiyentini ham hisoblab chiqishni taklif etadi<sup>23</sup>.

I.D.Mandel barqaror o'sish koeffitsiyentini va likvidlilik, moliyaviy mustaqillik, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik, aylanuvchanlik va rentabellik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi uning omillarga asoslangan modelini ko'rib chiqadi<sup>24</sup>.

T.P.Karlin moliyaviy barqarorlikni baholash uchun sarmoya tarkibining o'zgarishini uning joylashuvi va hosil bo'lish manbalari; sarmoyadan foydalanish samaradorligi va intensivligi; to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati; moliyaviy barqarorlik zaxirasi bo'yicha tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanadi<sup>25</sup>.

Ye.S.Stoyanovanning fikricha<sup>26</sup>, likvidlilik, faol ishbilarmonlik, resurslardan samarali foydalanish, sarmoya tarkibi va operatsion tahlil asosidagi koeffitsiyentlar "moliyaviy barqarorlik"ning eng muhim koeffitsiyentlari hisoblanadi. Fikrimizcha, Ye.S.Stoyanova "moliyaviy barqarorlik"ning koeffitsiyentlarini taklif etishda korxonalarining zaxiralari va ularni shakllantirish manbalari bilan ta'minlanganligi ko'rsatkichlarini nazardan chetda qoldirgan.

L.V.Donsova va N.A.Nikiforova<sup>27</sup> ko'rsatkichlar tizimi va ularning ballardagi reyting bahosini, ya'ni moliyaviy barqarorlikning integral ball bahosini taklif etadi.

---

<sup>22</sup> Романчин В.И., Скоблякова И.В., Смирнов В.Т. Венчурный капитал в стратегии антикризисного управления. Монография. – Орел: ОрелГТУ, 2002. – 230 с.

<sup>23</sup> Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. - М.: Асадемия, 1999. – 788 с.

<sup>24</sup> Мандел И.Д. Многомерный статистический анализ экономических процессов. – СПб.: Питер, 1989. -318 с.

<sup>25</sup> Карлин Т.П. Качество жизни и конкурентоспособность российских предприятий // Материалы научно-практической конференции. – Орел.: Орел ГТУ, -1997. – С. 103.

<sup>26</sup> Финансовый менеджмент: теория и практика / Под ред. Стояновой Е.С. 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Перспектива, 2003. - 656 с.

<sup>27</sup> Донсова Л.В., Никифорова Н.А. Годовая и квартальная бухгалтерская отчетность. - М.: Дело и Сервис, 1998. – 262 с.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni ilmiy asoslash va uni hisoblashda korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni uning qaysi tarmoqda faoliyat yuritishi va ixtisosligiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq<sup>28</sup>.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili “moliyaviy barqarorlik” tushunchasi mohiyatini tushunishga uch xil yondoshuv mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchi yondoshuv mazkur tushunchani tor ma’noda tushunishni izohlaydi va xo‘jalik subyekti moliyaviy holatining ko‘rsatkichlaridan biri sifatida talqin etadi.

Ikkinchi yondoshuv vakillari esa, o‘z navbatida, ushbu tushuncha mazmunining talqinida asosiy e’tiborlarini korxonada ishchan faolligi va ishonchliligi orqali ifodalanuvchi raqobatbardoshlik va korxonada hamda uning hamkorlari iqtisodiy manfaatlari samarali ijrosining kafolati bo‘lmish moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari baholanishining zarurligiga qaratadilar.

Va nihoyat, uchinchi yondoshuv vakillari korxonada moliyaviy barqarorligini moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog‘laydilar<sup>29</sup>.

Yuqorida keltirilgan talqinlardan xulosa qilish mumkinki, moliyaviy barqarorlikni ilmiy asoslash va uning ko‘rsatkichlarini tasniflash uchun asosan o‘rganilayotgan obyekt (soha va tarmoq)ning o‘ziga xos xususiyatlari va ixtisosligidan kelib chiqqan holda yondashishni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida kimyo sanoati korxonalari misolida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tizimini shakllantiramiz. Ushbu tarmoq korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- korxonalarining fond sig‘imi yuqoriligi;

---

<sup>28</sup> Хеддервик К. Финансовый и экономический анализ деятельности предприятий / Международная организация труда: пер. с англ. Д.П.Лукичева и А.О.Лукичевой / Под ред. Ю.Н.Воропаева. - М.: Финансы и статистика, 1996. – 192 с.

<sup>29</sup> Елеских С.Я. Анализ теоретических подходов к трактовке сущности понятия “финансовая устойчивость предприятия” // Экономика промышленности. 2018. № 1. С. 190.

- katta hajmdagi investitsiyalarning talab etilishi;
- narxlarning monopol xarakterga ega ekanligi;
- transport xarajatlari yuqoriligi;
- asosiy bozor ichki talabning qondirilishiga qaratilganligi;
- ishlab chiqarish majmuining xomashyo bazasi hududida joylashganligi;
- texnologik jarayonlarning murakkabligi;
- ish kuchiga talabning yuqoriligi va boshqalardan kelib chiqqan holda,

fikrimizcha, moliyaviy barqarorlikni mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar (moliyaviy koeffitsiyentlar)ga ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, **korxonalar moliyaviy barqarorligi** – *bu xo'jalik subyektlarining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi no-barqaror muhit ta'siriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham o'zining to'lovga layoqatliligini saqlay olishga qaratilgan qobiliyatidir.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lsada, bu jarayonda ular davlat ko'magiga muhtojdir. Hozirgi sharoitda iqtisodiy fan oldidagi muhim vazifalardan biri – korxonalar taraqqiyotining moliyaviy muammolarini, jumladan korxonalar moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan yo'riqlarni ishlab chiqish hamda nazariy asoslashdir.

Moliyaviy tahlil moliyaviy menejmentning muhim tarkibiy qismidir. Korxonalar moliyaviy hisobotlarining barcha iste'molchilari o'z manfaatlarini mukammallashtirish yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy tahlil usullaridan foydalanadilar. Mulk egalari moliyaviy hisobotlarini korxonalar foydasini oshirish hamda uning barqaror holatini ta'minlash uchun tahlil qiladilar. Kreditorlar va investorlar uchun esa bundan asosiy maqsad imkon boricha risk darajasini pasaytirishdir. Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, qabul qilinayotgan qarorlarning sifati to'laligicha ularni analitik asoslash sifatiga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti jarayonida mulk shakllarining, ijtimoiy-iqtisodiy muhitning, xo'jalik yuritish sharoitlarining, buxgalteriya hisobining o'zgarishi



kichik korxonalar moliyaviy holatini tahlil etish va baholashga yondashuvlarda tegishlicha o'zgartirishlar qilinishini talab etmoqda. Moliyaviy holat tahlili har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt uchun zarurdir, vaholanki, korxonada "yashovchanligi" uning daromadlilikini hamda to'lovga layoqatliligini saqlash qobiliyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Korxonada moliyaviy holatining tahlili o'z ko'lami jihatidan o'ta yirik va murakkab masaladir. Shu boisdan moliyaviy holat tahlilida aniq, maqsadning qo'yilishi mazkur masalaning aniqlashtirilishini va amaliy jihatdan hal qilinishi imkoniyatini belgilaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi fan-texnika yutuqlari natijalaridan keng foydalanish, ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish, barpo etilgan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini, xo'jalik mexanizmini takomillashtirish negizida iqtisodiyotni rivojlantirish hamda shu asosda xalq farovonligini yanada yuksaltirishni hozirgi kunning eng dolzarb vazifalari qilib qo'yimoqda.

Bu ulkan vazifalarni bajarish uchun boshqa qator tadbirlar bilan bir qatorda korxonalarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini chuqur va muntazam tarzda tahlil qilish darkor.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shaklidagi korxonalar moliyaviy ahvolini o'rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarining kelib tushishi, to'lov intizomiga rioya qilish, o'z va qarz mablag'larining to'g'ri nisbatda bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisod rejimi va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarining moliyaviy holati ko'p jihatdan baho, kredit, foyda va uning taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir.

Korxonalarining moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilish – bu kompaniyaning moliyaviy barqarorligini, resurslardan foydalanish samaradorligini va rivojlanish salohiyatini aniqlash uchun uning moliyaviy ma'lumotlarini o'rganish, baholash va sharhlash jarayonidir.

Korxonalarining moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Korxonaning likvidligini aniqlash - kompaniyaning joriy majburiyatlarini bajarish qobiliyati. Buning uchun korxonaning joriy aktivlari va passivlari, qisqa muddatli kreditorlik qarzlari va to'lov qobiliyati tahlili o'tkaziladi.

2. Rentabellikni baholash - foyda ko'rsatkichlarini, aktivlar va kapital rentabelligini tahlil qilish orqali korxonaning rentabelligini o'rganish. Bu mavjud resurslarning samaradorligini aniqlashga yordam beradi va natijalarni raqobatchilar bilan solishtirish imkonini beradi.

3. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish - korxonaning iqtisodiy qiyinchiliklardan omon qolish va o'z faoliyatini uzoq muddatda saqlab qolish qobiliyatini baholash. O'z kapitali va qarz kapitali nisbati, umumiy qarz va to'lov qobiliyati kabi moliyaviy tuzilma ko'rsatkichlari tahlilini o'z ichiga oladi.

4. Aktivlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish - korxonaning mavjud aktivlardan daromad olish qobiliyatini o'rganish. Tovar aylanmasi, debitorlik qarzlari va aylanma mablag'lar kabi aktivlarning aylanma ko'rsatkichlari tahlilini o'z ichiga oladi.

5. Moliyaviy riskni baholash - korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tahdidlar va noqulay omillarni aniqlash. Bu bozor riski, operatsion risk va kredit riski ko'rsatkichlarini tahlil qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Korxonalarining moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilish natijasida kompaniyaning moliyaviy holatini yaxshilash, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va strategik qarorlar qabul qilish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar shakllantiriladi.

Moliyaviy tahlil tizimida korxonaning faoliyati moliyaviy natijalarining darajalari, dinamikasi va tarkibining tahlili alohida o'rin egallaydi. Korxonaning faoliyatini xususiyatlovchi ko'rsatkichlarning ko'pligi ularni tizimli tarzda ko'rib chiqishning ma'lum uslubiy qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Mazkur ko'rsatkichlarning turli iste'molchilar tomonidan turlicha maqsadlarda

foydalanilishi ham tahlil chuqurligini qiyinlashtiradi. Masalan, korxonalarahbarlarini olingan foydaning umumiy hajmi va tarkibi, uning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar qiziqtiradi.

Soliq inspeksiyasini esa korxonalar foydasining har bir manbalari bo'yicha to'liq va aniq ma'lumotni olish qiziqtiradi. Kreditorlar va sarmoyachilar uchun esa foyda tahlili risklarni pasaytirish, ichki imkoniyatlarni qidirib topish, zarur strategik qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilish uning moliyaviy holati va faoliyatining muvaffaqiyatini baholashning muhim vositasidir. Bu korxonalar o'z resurslaridan qanchalik samarali foydalanishini, foyda keltirishini va moliyaviy oqimlarini taqsimlashini aniqlash imkonini beradi.

Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilishda odatda quyidagi choralar ko'riladi:

1. Moliyaviy ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish: ma'lum vaqt davomida korxonaning daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlari to'g'risidagi barcha mavjud ma'lumotlarni to'plash kerak.

2. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash: to'plangan ma'lumotlar asosida sof foyda, sotishdan olingan daromad, aktivlar rentabelligi, inventar va debitorlik qarzlari aylanmasi va boshqalar kabi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

3. Normlar va standartlar bilan taqqoslash: olingan ko'rsatkichlar ma'lum bir tarmoq yoki bozor uchun norma va standartlar bilan taqqoslanadi. Bu sizga og'ishlarni aniqlash va korxonaning muammoli joylarini aniqlash imkonini beradi.

4. Og'ishlar sabablarini tahlil qilish: olingan ma'lumotlarga asoslanib, norma va standartlardan chetga chiqish sabablari tahlil qilinadi. Bu bozor konyunkturasini tahlil qilish, raqobat vaziyatlari, boshqaruv qarorlari va boshqa omillarni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Tavsiyalar va chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish: tahlillar asosida korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab

chiqiladi. Bunga boshqaruv strategiyasini o'zgartirish, xarajatlarni optimallashtirish, jarayonni yaxshilash va boshqa chora-tadbirlar kiradi.

6. Monitoring va nazorat: tavsiyalarni amalga oshirgandan so'ng, korxonaning moliyaviy natijalaridagi o'zgarishlarni kuzatish va nazorat qilish kerak. Bu qabul qilingan chora-tadbirlar samaradorligini baholash va kerak bo'lganda tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Kompaniyaning moliyaviy natijalarini tahlil qilish murakkab jarayon bo'lib, moliyaviy tahlilni chuqur bilish va moliyaviy hisobotlar bilan ishlash tajribasini talab qiladi. Biroq, bu kompaniyaga o'zining moliyaviy holati haqida qimmatli ma'lumotlarni olish va maqsadlariga erishish uchun asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Hozirgi milliy valyuta iqtisodiyot ustidan moliyaviy nazoratning faol vositasi bo'lishdek o'z vazifasini, rolini yanada to'la-to'kis bajara olishini ta'minlash, jamiyat moliya tizimini hayot qo'yayotgan yangicha talablarni qondirishga imkon beruvchi mexanizm sifatida takomillashtirib borish davlatning makroiqtisodiy barqarorligining markaziy muammolaridandir. Ushbu masalalarni ijobiy hal qilish, albatta, korxonalar moliyaviy holatini yaxshilashning dolzarb masalalarini kun tartibiga qo'yadi.

Korxonada noxush moliyaviy holatning dastlabki belgilariga quyidagilar kiradi: sotish hajmi o'zgarmagan holda mehnatga haq to'lash harajatlarining o'sishi; kreditor (haqdor)lar soniga nisbatan qarzdorlar sonining tezroq o'sishi; sotish hajmi o'zgarmagani holda moddiy zapaslar darajasining o'sishi; korxonada taraqqiyoti harajatlari hajmining o'sishi; sotish hajmining pasayishi; foiz stavkalari o'rtacha bozor darajasining o'sishi; maxsus qarzlarni qoplash uchun rezervlarning ortishi; o'z faoliyati haqida noaniq tahminlar tuzish; qarzdorlar uchun to'lov muddatining kechiktirilishi; ishlab chiqarish sikli muddatining ortishi; mahsulot sotish hajmi o'zgarmagani holda sarmoyachilar uchun to'lovlarning oshirilishi va h.k.

Korxonada faoliyatiga oid ayrim boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi moliyaviy holatni qisqa muddatga yaxshilash imkonini beradi. Bunday tadbirlar

tizimida qator dolzarb choralarni ajratib ko'rsatish mumkin: korxonalar qarzlarning to'lanishida to'lov muddatlarining kechiktirilishiga erishish; ish haqi berilishida qat'iy tartib saqlash; ta'sischi uchun dividendlarni qayta investitsiya qilish; soliq imtiyozlaridan foydalanish; imtiyozli qarzlarni jalb etish; ishlab chiqarish zapaslaridan moddiy boyliklar sotilishini ta'minlash; ortiqcha asosiy vositalarni sotish; boshqaruv-ma'muriy xodimlarini qisqartirish.

Shunday qilib, ayrim moliyaviy ko'rsatkichning boshqa ko'rsatkichlar o'zgarishi xususiyatiga mos holda yaxshilanishi yoki yomonlashuvi korxonalar moliyaviy holatiga berilgan bahoni o'zgartirishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlar korxonalar moliyaviy holatini sifatli baholashning naqadar murakkabligini anglash imkoniyatini beradi, shuning uchun rivojlangan bozor tizimi sharoitida korxonalar alohida investorlar, maxsus tashkilotlar qarorlaridan ko'ra ko'proq o'zlarining xususiy kuzatishlari va tahlili natijalariga asoslanmoqdalar.

Hozirgi zamon talablari asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimini tadqiq etishda moliyaviy menejment nazariyasi asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimi juda muhim ahamiyat kasb etadi, shu bois tadqiqotimiz mazkur bobning keyingi paragrafi aynan shu masalaga bag'ishlanadi.

### **1.3.Moliyaviy menejment nazariyasi asosida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimi**

Korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish ko'pincha moliyaviy menejment muammolarining qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Aynan mana shuning uchun tadqiqotimizning mazkur paragrafida korxonalar faoliyati shakllanishi va rivojlanishini ilmiy asosda boshqarish yuzasidan o'z taklif va mulohazalarimizni bildirishga harakat qildik.

Moliyaviy menejmentning mohiyatini tushunishda bir qator fikrlar mavjud. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodchi-olimlaridan Z.Bodining fikricha, "moliyaviy menejment o'zining bosh maqsadi sifatida aksiya kursini, aksiyaga

to'g'ri keluvchi sof foyda miqdorini, dividend darajasini, hissadorlar mulkini va boshqalarni ko'paytirishni ilgari suruvchi firmalar moliyasini boshqarishdir”<sup>30</sup>.

Amerikalik iqtisodchi olim P.Etrillning fikricha, “Moliyaviy menejment vaqt va risk omillarini hisobga olgan iqtisoddir”<sup>31</sup>.

Rossiyalik olim M.Gridchinaning ta'kidlashicha, “Moliyaviy menejment - korxonada o'z va qarz mablag'laridan samaraliroq foydalanishi hamda eng kam risk sharoitida yuqori foyda olishni ta'minlashining uslublari, yo'nalishlari haqidagi fandir”<sup>32</sup>.

Ba'zi iqtisodchilar moliyaviy menejment tushunchasini maqsadli boshqaruv tizimi sifatida talqin etmoqda. Jumladan, rossiyalik olim I.Balabanov fikricha, “moliyaviy menejment - moliyaviy resurslar harakati va bu jarayonda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlarni boshqarish maqsadini ishlab chiqish va ularga moliya dastaklari yordamida ta'sir etish jarayonini tavsiflaydi”<sup>33</sup>.

Rossiyalik olimalardan biri Ye.Stoyanova “Moliyaviy menejment korxonada o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun foydalanadigan usullarning zaruriy majmuasidir. Bu yerda asosiy narsa - bosh maqsadga zid kelmaydigan, unga erishishni ta'minlaydigan usullarni tanlay bilish va qo'llay olishdadir”<sup>34</sup> degan edi.

N.Plaskovaning fikricha, “Moliyaviy menejment kompaniya moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bo'yicha boshqarish tizimidir”<sup>35</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan S.Usmanovning fikricha, “moliyaviy menejment bu yirik pul mablag'lari oqimini boshqarishga va eng qulay moliyaviy yechimlar topishga imkoniyat yaratuvchi tadbirkorlik faoliyati

---

<sup>30</sup> Боди З, Ментон Р. Финансы. Перевод с английского. -С.Пб.: Питер. 2005. –с.20.

<sup>31</sup> Этрилл П. Финансовый менеджмент. Пер. с англ. -С.Пб.:Питер, 2007. -с.60.

<sup>32</sup> Гридчина М.Финансовый менеджмент. -К.: МАУП, 2004. –с.26.

<sup>33</sup> Балабанов И. Основы финансового менеджмента. -М.: Финансы и статистика, 1997.-с.40..

<sup>34</sup> Стоянова Е. Управление оборотным капиталом. -М.: Перспектива, 1998. –с.28.

<sup>35</sup> Финансовый менеджмент. Под ред . Пласковой Н.С. -М.: Программа МВА, 2007.-с.14

moliyaviy ta'minlashning strategiyasi va taktikasidir”<sup>36</sup>. Boshqa bir iqtisodchi olim B.To‘xliyev fikriga ko‘ra, “korxonalar moliyaviy boshqaruvi boshqaruv faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarishni moliyalashtirish va mahsulot realizatsiyasi borasidagi joriy masalalarni hal etishni ta'minlaydi”<sup>37</sup>.

Moliyaviy menejment mohiyatini bunday tushunish yuqoridagi qarashlardagi kabi aniq izlanish predmetini ifodalasa-da, unda moliyaviy menejment jarayonining tashkiliy-iqtisodiy asoslari yetarlicha yoritila olinmagan.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning muvaffaqiyati va uzoq muddatda bozorda omon qolish qobiliyatining muhim ko‘rsatkichidir. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash uchun moliyaviy menejment nazariyasiga asoslangan turli xil boshqaruv usullaridan foydalanishingiz mumkin.

- Kapital tuzilmasini optimallashtirish: Moliyaviy menejer kapitalning optimal tuzilishiga, ya‘ni o‘z kapitali va qarz o‘rtasidagi muvozanatga erishishga intilishi kerak. Qarz olingan mablag‘larning haddan tashqari katta ulushi kompaniya uchun xavflarni oshirishi mumkin, chunki kreditlar bo‘yicha foizlarni to‘lash zarurati ortadi. Boshqa tomondan, kapitalning haddan tashqari ko‘pligi kapitaldan samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin. Moliyaviy menejer korxonaning moliyaviy tuzilishini tahlil qilishi va o‘z kapitali va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi optimal nisbatni aniqlashi kerak.

- Aylanma mablag‘larni samarali boshqarish: Aylanma mablag‘lar korxonaning kundalik faoliyatiga (masalan, inventar, debitorlik qarzlari va qisqa muddatli qarzar) sarflangan mablag‘larni ifodalaydi. Moliyaviy menejer kapitalni muzlatish va u bilan bog‘liq xarajatlarni oldini olish uchun aylanma mablag‘lar miqdorini minimallashtirishga harakat qilishi kerak. Shu bilan birga,

---

<sup>36</sup>Axmedov D.K., Gadoyev E.F., Usmanov A.S. Moliyaviy menejment. O‘quv qo‘llanma.-T.: TDIU, 1999. 39-b.

<sup>37</sup>Tuxliyev B.K. Moliyaviy menejment.O‘quv qo‘llanma. -T.:TDIU, 2007.-164 b.

korxonada biznes jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash uchun yetarli darajadagi aylanma mablag'larga ega bo'lishi kerak.

- Samarali sarmoyalarni boshqarish: Investitsiyalarni boshqarish biznes aktivlarini sotib olish yoki sotish bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy menejer turli investitsiya loyihalarining potentsial daromadlari va risklarini baholashi va ushbu tahlillar asosida qaror qabul qilishi kerak. Maqsad korxonada qiymatini maksimal darajada oshiradigan loyihalarni tanlashdir.

- Moliyaviy risklarni boshqarish: Moliyaviy risklar valyuta kurslari, foiz stavkalari, tovar narxlari va boshqa omillarning o'zgarishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Moliyaviy menejer ushbu risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishi kerak, masalan, derivativlardan foydalanish yoki xomashyoni belgilangan narxlarda yetkazib berish bo'yicha uzoq muddatli shartnomalar tuzish.

- Soliqlarni optimallashtirish: Moliyaviy menejer soliq siyosatini tahlil qilishi va soliq imtiyozlari va chegirmalardan foydalanish kabi qonuniy vositalar orqali soliq xarajatlarini minimallashtirishga harakat qilishi kerak. Korxonaning moliyaviy barqarorligini boshqarishning ushbu usullarining barchasi moliyaviy tamoyillarga asoslanadi.

Korxonada maqsadlari daromadni oshirish, bozor ulushini oshirish, moliyaviy barqarorlikni yaxshilash yoki biznesni kengaytirishni o'z ichiga olishi mumkin. Ularni amalga oshirishning moliyaviy imkoniyatlari investitsiyalar, kreditlar yoki qo'shimcha kapital jalb qilish kabi moliyaviy vositalardan foydalanishni, shuningdek, byudjetlashtirish, aylanma mablag'larni boshqarish yoki risklarni boshqarish kabi moliyaviy boshqaruv usullaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.





**1.3-rasm. Korxonada moliyaviy menejment asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmi<sup>38</sup>**

Moliyaviy boshqaruvning tashkiliy elementlariga quyidagilar kiradi:

<sup>38</sup> Muallif ishlanmasi.

1. Boshqaruv tuzilmasi: moliya bo'limining ierarxik tashkil etilishini va uning korxonaning boshqa funktsional bo'linmalari bilan aloqalarini belgilaydi. Ushbu bosqichda korxonani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, erishish kerak bo'lgan aniq moliyaviy maqsadlar belgilanadi.

2. Mas'uliyat va vakolatlarning taqsimlanishi: moliya bo'limiga qaysi vazifa va funksiyalar tegishli ekanligini, shuningdek, ushbu bo'lim xodimlari qanday vakolatlarga ega ekanligini belgilaydi.

3. Aloqa va muvofiqlashtirish: moliya bo'limi va korxonaning boshqa funktsional bo'limlari o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik va ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi.


4. Rejalashtirish va byudjetlashtirish: moliyaviy rejalar va byudjetlarni ishlab chiqish jarayonlarini, shuningdek, ularning korxonaning umumiy strategiyasi bilan aloqasini belgilaydi. Rejalashtirish va byudjetlashtirish moliyaviy boshqaruvning asosiy tashkiliy elementlaridan biridir. U korxonaning moliyaviy maqsadlari va vazifalarini aniqlash, ularga erishish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, shuningdek, zarur resurslar va ulardan foydalanish usullarini aniqlash imkonini beradi.

5. Nazorat va tahlil: moliyaviy rejalar va byudjetlarning bajarilishini nazorat qilish mexanizmlarini, shuningdek, qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy natijalar va ko'rsatkichlarni tahlil qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

6. Xodimlarni tayyorlash va rivojlantirish: Bo'lim xodimlarini o'z vazifalarini samarali bajarishlari uchun moliyalashtirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni beradi.

7. Tizimlar va texnologiyalar: moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish va dolzarb moliyaviy ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlash uchun axborot tizimlari va texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari va natijalari tahlili o'tkaziladi, uning moliyaviy barqarorligi va salohiyati baholanadi.

Quyidagi rasmda korxonada moliyaviy menejmentning tashkiliy modeli keltirilgan.



### 1.3.-rasm. Korxonada moliyaviy menejmentning tashkiliy modeli<sup>39</sup>

Moliyaviy menejmentning tashkiliy elementlari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

<sup>39</sup> Muallif ishlanmasi

1. Moliyaviy strategiya - tashkilotning moliyaviy resurslaridan foydalanish maqsadlari va rejalarini belgilash. Rivojlanishning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash, resurslarni turli loyihalar va dasturlar oʻrtasida taqsimlashni oʻz ichiga oladi.

2. Byudjetlashtirish - tashkilot byudjetini tuzish va boshqarish. Daromad va xarajatlarni rejalashtirish, byudjet ijrosini nazorat qilish, ogʻishlarni tahlil qilish va rejalarini tuzatishni oʻz ichiga oladi.

3. Moliyaviy rejalashtirish - tashkilotning uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy rejalarini ishlab chiqish. Moliyalashtirishga boʻlgan ehtiyojni aniqlash, moliyalashtirish manbalarini tanlash, daromadlar va xarajatlarni prognozlashni oʻz ichiga oladi.

4. Kapitalni boshqarish - oʻz maqsadlariga erishish uchun tashkilot kapitalidan samarali foydalanish. Investitsiyalarni jalb qilish, aktivlar va passivlarni boshqarish, investitsiya loyihalarini tahlil qilish kiradi.

5. Risklarni boshqarish - tashkilotning moliyaviy risklarini boshqarish. Xatarlarni aniqlash, tahlil qilish va baholash, ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish, xavflarni monitoring qilish va nazorat qilishni oʻz ichiga oladi.

6. Moliyaviy hisobot - tashkilotning moliyaviy hisobotini tayyorlash va tahlil qilish. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, ularni tahlil qilish va izohlash, manfaatdor shaxslarga maʼlumot berishni oʻz ichiga oladi.

7. Boshqaruv hisobi - boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning moliyasi haqidagi maʼlumotlarni tizimli ravishda yigʻish, tasniflash, tahlil qilish va talqin qilish. Buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini ishlab chiqish, moliyaviy koʻrsatkichlar monitoringi va resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishni oʻz ichiga oladi.

8. Aylanma mablagʻlarni boshqarish. Bu korxonaning tovar-moddiy zaxiralari, debitorlik va kreditorlik qarzlari kabi joriy aktivlari va majburiyatlarini boshqarish jarayonidir. Aylanma mablagʻlarni boshqarish korxonaning normal ishlashini taʼminlash va uning moliyaviy resurslaridan foydalanishni optimallashtirish imkonini beradi.

9. Moliyaviy tahlil. Bu korxonaning foyda, rentabellik, likvidlik kabi moliyaviy ko'rsatkichlari va natijalarini o'rganish va baholash jarayonidir. Moliyaviy tahlil korxonaning moliyaviy holatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, shuningdek, uning samaradorligini oshirishga imkon beradi. moliyaviy qarorlar.

10. Investitsiyalarni rejalashtirish. Bu korxonaga foyda keltirishi va uning qiymatini oshirishi mumkin bo'lgan investitsiya loyihalarini aniqlash va tanlash jarayonidir. Investitsiyalarni rejalashtirish risklarni tahlil qilish, kutilayotgan daromadlarni baholash va investitsiya resurslarini taqsimlash bo'yicha qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosalar:**

1. Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy qiyinchiliklarni engish va uzoq muddatda moliyaviy barqarorligini saqlab qolish qobiliyatini anglatadi. Bu turli omillarga, jumladan, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, risklarni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish va nazoratga bog'liq.

Korxonaning moliyaviy barqarorligiga erishish uchun quyidagi vositalar va usullardan foydalanish mumkin:

A) Xarajatlarni ratsionalizatsiya qilish. Bu keraksiz yoki samarasiz xarajatlarni aniqlash va yo'q qilish orqali korxonada xarajatlarni optimallashtirish jarayonidir. Xarajatlarni ratsionalizatsiya qilish xarajatlarni kamaytirishga va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

B) Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish. Bu risklarni kamaytirish va rentabellikni oshirish maqsadida korxonaning investitsiya portfelini turli aktivlar va bozorlar o'rtasida taqsimlash strategiyasi. Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish va diversifikatsiya qilish mumkin bo'lgan yo'qotishlarni kamaytirishga yordam beradi va barqaror daromad oqimini ta'minlaydi.

C) Moliyaviy zaxiralarni shakllantirish. Bu kutilmagan vaziyatlarda yoki moliyaviy qiyinchiliklarda foydalanish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni to'plash jarayonidir. Moliyaviy zaxiralar kompaniyaga moliyaviy barqarorlikka putur yetkazmasdan mumkin bo'lgan yo'qotishlar yoki muammolarni yengishga yordam beradi.

D) Qarzlarni boshqarish. Bu kompaniyaning qarz majburiyatlarini monitoring qilish va optimallashtirish jarayonidir. Qarzni boshqarish optimal moliyalashtirish manbalarini tahlil qilish va tanlash, foiz stavkalari va qarzni to'lash shartlarini boshqarish, qarz majburiyatlari bilan bog'liq risklarni minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

E) Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash. Bu uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy rejalar va prognozlarni ishlab chiqish jarayonidir. Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash korxonaga o'zining moliyaviy ehtiyojlari, maqsadlari va strategiyalarini aniqlash, moliyaviy barqarorlikka erishish uchun zarur choralarni ko'rish imkonini beradi.

F) Risklarni boshqarish. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash, tahlil qilish va boshqarish jarayonidir. Risklarni boshqarish moliyaviy, operatsion va boshqa turdagi risklarni baholash va nazorat qilishni, shuningdek ularning korxonaga ta'sirini kamaytirish choralarni ko'rishni o'z ichiga oladi.

2. Moliyaviy barqarorlik – aktivlar tarkibida moliyalashtirish manbalari tarkibining muvofiqligi tavsiflaridan biri hisoblanadi. Korxonada aylanma aktivlari va qisqa muddatli majburiyatlarini baholovchi to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichidan farqli tarzda moliyaviy barqarorlik moliyalashtirishning turli manbalari o'zaro nisbati va ularning korxonada aktivlari tarkibiga muvofiqligi orqali aniqlanadi.

3. Korxonada moliyaviy barqarorligi - bu xo'jalik subyektining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi nobarqaror muhit ta'siriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham o'zining to'lovga layoqatliligini saqlay olishga qaratilgan qobiliyatidir.

## **II BOB. MOLIYAVIY MENEJMENT TIZIMIDA KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH VA BOSHQARISHNING HOZIRGI ZAMON USLUBIYOTI**

### **2.1. Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash amaldagi uslubiyotlarining tanqidiy tahlili**

Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash turli xil moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Xususan, moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, kapital tarkibini tahlil qilish, to'lovni qobiliyatini tahlil qilish, rentabellikni tahlil qilish, xavflarni tahlil qilish, balansni tahlil qilish, naqd pul oqimlarining tahlili kabi turlari mavjud. Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash yuqoridagi ko'rsatkichlarning tahlili va ularni sanoat yoki boshqa kompaniyalar uchun o'rtacha qiymatlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkichlarning barqaror va ijobiy qiymatlari korxonaning moliyaviy barqarorligini ko'rsatadi.

Moliyaviy resurslardan samarali shakllanish, tarqatish va ulardan foydalanish tashkilot muvaffaqiyat va barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Ushbu maqsadga erishish uchun muayyan strategiyalar va usullarni qo'llash kerak.

Birinchidan, moliyaviy resurslarni to'g'ri shakllantirish juda muhimdir. Buni tashkilot byudjetini rejalashtirish, ehtiyojlar va imkoniyatlarni tahlil qilish, shuningdek, investorlar yoki kredit tashkilotlari kabi qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchidan, moliyaviy resurslarni samarali tarqatish kerak. Buning uchun siz byudjetlashtirish usullarini va xarajatlarni nazorat qilish usullaridan foydalanishingiz mumkin. Xarajatlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va byudjet faoliyatini monitoring qilish mexanizmini belgilash muhimdir.

Uchinchidan, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish kerak. Bunga investitsiyalarni boshqarish, soliq to'lovlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va tashkilotning rentabelligini oshirish orqali erishish mumkin.

Bundan tashqari, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishning muhim jihatlari xavflarni boshqarishdir. Muammolar moliyaviy zarbalariga tayyorgarlik ko'rish va xatarlarni minimallashtirish mexanizmlariga ega bo'lishi kerak.

Umuman olganda, moliyaviy resurslardan samarali shakllanish, tarqatish va ulardan foydalanish har tomonlama yondashuv va doimiy monitoringni talab qiladi. Moliyalashtirishni muvaffaqiyatli boshqaradigan tashkilotlar uzoq umr bo'yi barqarorlikni va rivojlanishni ta'minlaydilar.

Demak, moliyaviy resurslarni samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy salohiyati, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini barqarorligi ichki va tashqi omillar, jumladan, bugungi kunda jahon miqyosidagi moliyaviy inqirozlar va ularning salbiy oqibatlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Jahonda so'nggi yillarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi COVID-19 pandemiyasidan jiddiy zarar ko'rdi. 2020-yilda xorijiy investitsiyalarning global oqimi 3/1 qismga pasayib, 1 trillion dollarga tushdi, 2021-yilda esa to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 1,58 trln.dollarni tashkil etdi. Bu o'n yil avvalgi global moliyaviy inqirozdan keyin erishilgan eng past nuqtadan ancha kam<sup>40</sup>. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish va yangi infratuzilmaga oid investitsiya loyihalari ayniqsa katta zarar ko'rdi. Bu katta muammo, chunki xalqaro investitsion oqimlar dunyoning qashshoq mintaqalarida barqaror rivojlanish uchun juda muhimdir. Pandemiyadan barqaror va inklyuziv tiklanishni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyalarni ko'paytirish endi global barqarorligining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu infratuzilma va energiya almashinuviga, ishlab chiqarishga va ijtimoiy sohalarga investitsiya kiritishni rag'batlantirishni nazarda tutadi.

Vaholanki, hozirga kunda jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xususan, ularning yangi

---

<sup>40</sup> Qarang: [www.unctad.org](http://www.unctad.org) . World Investment Report 2021



moliyalashtirish manbalaridan foydalanish darajasini oshirish, davlatlarning investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mazkur mamlakatlar amaliyotida inflyatsiya darajasining yuqoriligi hamda investitsion muhit jozibadorligining nisbatan pastligi, jahon moliyasi globallasuvi jarayoni va dunyo iqtisodiyoti integratsiyalashayotgan bir paytda moliyaviy resurslar shakli sifatida korxonalar qarz kapitalini jalb qilishdek usulga yangicha shakl va metodlar qo'llanilishi hamda moliyalashtirish manbalarining barqaror emasligi oqibatida korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini boshqarish amaliyotiga ta'sir etayotgan salbiy jihatlarni bartaraf etish bu sohadagi muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu jihatdan, korxonalar moliyaviy barqarorligining asosi bo'lmish "korxonalarda moliyaviy salohiyatni oshirish" va "korxonalarda moliyaviy salohiyatni optimallashtirish" tushunchalarining mazmuni aniqlashtirish va ular farqlarining mezonlari asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, moliyaviy salohiyatni oshirish miqdor omillariga ko'proq tayansa va uni korxonalar moliyaviy resurs imkoniyatlarining amaldagi va istiqboldagi zaxiralarini inobatga olgan holda oshishi deb tasavvur etilsa, "korxonalarda moliyaviy salohiyatni optimallashtirish" moliyaviy resurs imkoniyati va mablag'lardan foydalanish sifat ko'rsatkichlari omillariga tayanadi va ularni samarali joylashtirish va investitsion yo'nalishlarini qiyoslash va samarali joylashtirishni ham hisobga olish zaruratini talab qiladi.

To'lovga qodirlik korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, naqd pul mablag'lari orqali muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajara olishiga aytiladi.

Korxonaning to'lovga qodirligi balans aktivi ko'rsatkichlarini likvidligi hamda pul mablag'lari harakatini o'rganish orqali aniqlanadi. Likvidlik ko'rsatkichlari orqali to'lovga qodirlikni anqlaymiz. Buning uchun oborot aktivlari likvidligi, balans likvidligi, korxonalar likvidligi, to'lovga qodirlik ko'rsatkichlariga qisqacha izoh beramiz. Oborot aktivlarini likvidligi balans likvidligidan farqlanadi.

Oborot aktivlarini pulga aylanishi uchun ketadigan vaqt qancha qisqa bo'lsa, uning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning aktividagi moddalarni pulga aylanishi orqali to'lov majburiyatlarini qoplay olishi, aniqrog'i – to'lov majburiyatlarining muddati aktivdagi moddalarni pulga aylanish muddatigi mos kelishiga balans likvidligi deb tushuniladi. Balans likvidligini tahlil etish uchun professor E.Akramov fikriga ko'ra, balansning aktiv tomonidagi bir davrga borib naqd pulga aylanadigan mablag'larni shu davrda qaytariladigan majburiyatlar bilan solishtirish kerak.

Korxonaning likvidligi – balans likvidligiga nisbatan keng ma'noni anglatadi. Balans likvidligi to'lov majburiyatlari faqat korxonaning ichki imkoniyatlari (aktivlarni realizatsiyasi)dan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ammo, korxonaning investitsiya faoliyati, ishbilarmonlik faolligini oshirish uchun o'z mablag'laridan tashqari chetdan qarz mablag'larini ham jalb etishi mumkin. "To'lovga qodirlik" va "likvidlik" ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin, ammo "likvidlik" biroz kengroq ma'noni anglatadi. To'lovga qodirlik, balans likvidligi va korxonaning likvidlik darajalariga bog'liq.


Korxonaning joriy va istiqboldagi moliyaviy holatini likvidlik ko'rsatkichlari ifodalaydi. Tahlil etilayotgan korxonaning hisobot davrida to'lovga qodir, ammo, kelgusi yillarda noqulay iqtisodiy sharoitga tushib qolishi va buning aksi ham bo'lishi mumkin.

To'lovga qodirlik, korxonaning likvidligi va balans likvidligini professor G.V.Saviskaya ko'p qavatli binoga o'xshatadi. Bunda barcha qavatlar bir-biriga teng, ammo, ikkinchi qavatni birinchisiz, uchinchi qavatni birinchi va ikkinchi qavatlarisiz bunyod etib bo'lmaydi<sup>41</sup>.

Demak, balans likvidligi to'lovga qodirlik va korxonaning likvidligining asosi (fundamenti)ni tashkil etadi. Boshqa so'z bilan aytganda likvidlik – bu to'lovga qodirlikni saqlash usulidir.

---

<sup>41</sup> Савиская Г.В. "Анализ хозяйственной деятельности". Учебник. 4-изд. М.: Инфра-М., 2019, 534 стр.



## 2.1-rasm. Likvidlik va korxonaning to'lovga qodirlik ko'rsatkichlarini bir-biriga uzviy bog'liqligi<sup>42</sup>

Korxonani to'lovga qodirligining dinamikasi va uning darajasi to'g'risida aniq xulosa qilish uchun quyidagi omillar ta'sirini ham hisobga olmoq zarur:

- korxonona faoliyatining xarakteri. Masalan, sanoat, qurilish xarakteridagi korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralarini ulushi yuqori, pul mablag'lariniki esa past;

- debitorlar bilan hisoblashish usuli;
- ishlab chiqarish zaxiralarini holati;
- debitorlik qarzlari holati: uning tarkibidagi muddati o'tgan, dargumon qarzlarni mavjudligi yoki mavjud emasligi.

Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli ko'rsatkich bo'lib, korxonona faoliyatining barcha tomonlari natijasi unda aks etadi. Moliyaviy barqarorlikka erishgan korxonalar quyidagi hususiyatlarga ega bo'ladi:

- bozor munosabatlarini har xil sharoitlarida ham faoliyat yurita olishi;
- korxonona pul mablag'larini erkin harakat qilishi;
- moliyaviy resurslarni bozor talablariga mos kelishi;

<sup>42</sup> Muallif ishlanmasi

- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlantirish va to'lov qobiliyati, kreditga layoqatligini ta'minlay olishi;

- ishlab chiqarish zaxiralari va harajatlarini manbalar bilan qoplanishi.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda moliyaviy barqarorlikka ta'aluqli ko'rsatkichlar, ularni hisoblash yo'llari va tahlili yetarlicha yoritilmagan.

Moliyaviy barqarorlik mazmun jihatidan turlicha tariflanadi. To'lov qobiliyati, balans likvidligi, korxonani bozor faolligi ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari sifatida ko'rilishi mutlaqo noto'g'ri.

Professor E.Akramov<sup>43</sup> tomonidan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari xususida bildirilgan fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir. Moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash uchun zaxira va xarajatlar yoki moddiy aylanma mablag'larni ularni tashkil topish manbalariga nisbat ko'rinishida aniqlash tavsiya etiladi. Moliyaviy koeffitsiyentlar esa moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi moliyaviy holatning qo'shimcha ko'rsatkichlaridir deyiladi mazkur qo'llanmada. Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash uslubi va ularning soni xususida ham ma'lum bir yechimga kelinmagan.

M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov<sup>44</sup> moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni iqtisodiy mohiyati jihatidan beshta guruhga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

1. O'z (xususiy) mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
3. Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
4. Aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
5. Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov<sup>45</sup> darsligida moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlar deb yettita koeffitsiyent

---

<sup>43</sup> Akramov E.A. "Korxonaning moliyaviy holati taxlili". T., "Moliya", 2003.-127-b

<sup>44</sup> M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov "Iqtisodiy tahlil". O'quv qo'llanma. T., 2001., 137-bet.

<sup>45</sup> A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov "Moliyaviy va boshqaruv tahlili". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T. 2005, 219-220 betlar.

keltiriladi. Professor N.M. Lyubishin<sup>46</sup> oltita moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarini aniqlash uslublarini tavsiya etadi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ko'rsatkichlar uch guruhga bo'linib o'rganiladi:

I guruh. To'lovga qodirlik

II guruh. Kapital strukturasi

III guruh. Asosiy vositalar va aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Tahlil davomida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim.

Ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin.

- korxonada faoliyatini tarmoq xususiyatiga mos kelishi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan xizmat tuzilishi (strukturasi);
- ustav kapitaliga to'langan miqdor hajmi;
- xarajatlar miqdori, ularni daromadlarga nisbati dinamikasi;
- mol-mulk va moliyaviy resurslar holati, shu jumladan, zaxira va rezervlar, ular tarkibi va tuzilishi.


Tashqi omillarga xo'jalikni yuritishning iqtisodiy shartlari, to'lovga qodirlik, xaridorlarning daromadlik darajasi, davlatning soliq va kredit bo'yicha barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar kiradi.

Umumiy barqarorlik chegarasini yuqori yoki past bo'lishi turli xil sabablarga bog'liq.

- "Barqarorlik zaxirasi" - bir necha yillar davomida shakllangan moliyaviy zaxiralar miqdori tasodifiy va keskin tashqi kutilmagan o'zgarishlarni oldini olishga qaratilgan.

---

<sup>46</sup> N.M. Lyubishin "Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiya".-M.: Delo i servis, 2011., s. 111-113.



**2.2-rasm. Korxonalar barqarorligining turlari<sup>47</sup>**

- Texnik-iqtisodiy barqarorlik – investitsiya loyihalari samaradorligi, texnika bilan qurollanish darajasi, ishlab chiqarish, mehnat, boshqaruvni tashkillashtirish; pul oqimlarini harakati tufayli foydaga erishishni ifodalaydi.


- Moliyaviy barqarorlik – daromadni harajatlarga nisbatan va resurslar holatini yuqori bo‘lishi, pul mablag‘larining erkin xarakatini ta’minlaydi, mablag‘lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish uzluksizligi, uni kengaytirish va yangilanishi uchun zamin yaratadi.

Moliyaviy barqarorlik o‘z va chetdan jalb etilgan kapitallar nisbati, joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyat tufayli o‘z kapitali jamg‘armasini o‘shirish darajasi, harakatchan va immobilizatsiya qilingan resurslar nisbati, zaxiralarni o‘z mablag‘lari manbai bilan ta’minlanishini ifodalaydi.

Demak, moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar holati birinchidan, bozor talabiga mos kelishi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni rivojlanishini ta’minlashi lozim.

Moliyaviy barqarorlik tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

<sup>47</sup> Muallif ishlanmasi



### 2.3-rasm. Korxonada moliyaviy barqarorligini turlari

- joriy – konkret (aniq) davr mobaynidagi moliyaviy barqarorlik;
- imkon – tashqi sharoit o‘zgarishini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik;
- yuzaki – davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanadigan, chetdan beriladigan yordam tufayli moliyaviy barqarorlik;
- real – raqobat sharoitida kengaygan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik.

Professional so‘z boyligida “moliyaviy barqarorlik” terminini ishlatilishi bir xil ma’noni anglatmaydi.

Chet el iqtisodiy adabiyotlari va jahon amaliyotida “moliyaviy barqarorlik” so‘zini ifodalanishidagi farqlanish korxonada balans tahliliga ikki xildagi yondoshish, ya’ni, balans likvidligini an’anaviy va zamonaviy funksional usullarini qo‘llash orqali yuzaga keladi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish usullariga quyidagi yondashuvlar kiradi:

1. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish: asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni, masalan, rentabellik, likvidlik, to‘lov qobiliyati va boshqalarni baholashga asoslangan. Bu korxonaning moliyaviy holatining hozirgi holatini va moliyaviy qiyinchiliklarni engish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

2. Kapital tarkibi tahlili: korxonaning o'z va qarz kapitali nisbatini baholashni o'z ichiga oladi. Qarz olingan mablag'larning yuqori ulushi yuqori darajadagi xavf va moliyaviy vaziyatning beqarorligini ko'rsatishi mumkin.

3. To'lov qobiliyatini tahlil qilish: kompaniyaning qarzlarni to'lash va etkazib beruvchilarga to'lovlarni to'lash bo'yicha joriy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini baholashga asoslangan. Bu moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlashning muhim jihati.

4. Likvidlik tahlili: korxonaning joriy majburiyatlarni bajarish uchun aktivlarni pul mablag'lariga tez aylantirish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Yuqori darajadagi likvidlik moliyaviy barqarorlik belgisidir.


5. Rentabellik tahlili: korxonaning aktivlari va kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi. Yuqori rentabellik moliyaviy barqarorlik belgisidir.

6. Moliyaviy oqimlarni tahlil qilish: korxonaning tomonidan pul oqimlarini yaratish va ulardan foydalanishni baholash imkonini beradi. Bu uning qarzlarni to'lash va rivojlanishga sarmoya kiritish uchun yetarli mablag' ishlab chiqarish qobiliyatini aniqlashga yordam beradi.

Umuman olganda, korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish turli usullar va yondashuvlarni birlashtirgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu korxonaning moliyaviy holatidagi xavf darajasini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlashga, shuningdek uning barqarorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Korxonaning moliyaviy holati xo'jalik subektining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni xarakterlaydi.





#### 2.4-rasm. Korxonona moliyaviy barqarorligini tahlil etish usullari<sup>48</sup>

Moliyaviy barqarorlik nisbiy ifodalari aktivlarni (uzoq muddatli) va zaxiralarni moliyalashtirishning, moliyaviy mustahkamlik va qaramlikning, o‘z va qarz mablag‘larini jalb etilishida ijobiy natijaning saqlanishini xarakterlaydi.

Hammamizga ma‘lumki, sanoat korxonolari moliyaviy barqarorligini baholashda turli xil koeffitsiyentlar tizimi asosida tahlil qilinadi. Shu o‘rinda, biz, ilmiy tadqiqotlarda eng ko‘p duch keladigan moliyaviy koeffitsiyentlarni tahlil qilib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Quyida biz ulardan eng muhimlarini keltirib o‘tamiz:

Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti.

To‘lov qobiliyati (joriy likvidlilik) koeffitsiyenti.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.

O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti.

<sup>48</sup> Muallif ishlanmasi

O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti.

Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti.

Balans foyda me‘yori koeffitsiyenti.

Sof foyda me‘yori koeffitsiyenti.

Yuqorida keltirilgan asosiy moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari bilan bir qatorda iqtisodiyotda yuqoridagilarga o‘xshash koeffitsiyentlar juda ko‘p, ular sanoat korxonalarining aktivlari va passivlari holatini turli jihatdan asoslab beradi.

Shu munosabat bilan moliyaviy barqarorlik va uni ta‘minlashni baholashda qiyinchiliklar vujudga keladi. Xususan, ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlar uchun yagona me‘yoriy mezonlar ishlab chiqilgan emas. Ularning me‘yoriy darajalari ko‘pgina omillar, ya‘ni sanoat korxonalarining tarmoq xususiyatlari, kreditlash shakllari, shakllangan mablag‘lar tarkibi hamda aylanma aktivlarning aylanishi bilan bog‘liq.

Demak, koeffitsiyentlar darajasining maqbulligi, uning dinamikasi va o‘zgarishini baholash faqat aniq sanoat korxonasi, jumladan, uning yo‘nalishi va tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ayrim hollarda bir xil tarmoq korxonalarini faoliyatini qiyosiy tahlil qilishimiz ham mumkin.

E‘tiborli jihati shundaki, ayrim koeffitsiyentlar moliyaviy barqarorlik va uni ta‘minlash bo‘yicha mavjud ma‘lumotlarni beradi hamda ularning o‘zaro bog‘liqlik jihatlarini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi holatlarga tayangan holda, biz, 3 ta moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarini qo‘shgan holda ko‘rib chiqamiz va kimyo sanoati korxonalarining xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi koeffitsiyentlarni belgilab olamiz.

1. Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti. Investitsiya obyektining moliyaviy barqarorligini baholash usuli. Bu moliyalashtirishning qaysi qismini barqaror majburiyatlar tashkil etishini aniqlashga imkon beradi: kapital va uzoq muddatli majburiyatlar. Agar korxonaning aktivlari likvidsiz bo‘lsa va u joriy

hisoblarini to'liq to'lay olmasa, investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti tushadi. Uning me'yoriy qiymati 0,7 dan 0,9 gacha. Ortiqcha ko'rsatkich qarzni moliyalashtirish manbalaridan yetarli darajada foydalanilmaganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun balans ma'lumotlari asos hisoblanadi.

Investor o'zining moliyaviy resurslarini yo'naltirgan loyihadan yetarli moliyaviy daromad olishdan manfaatdor. Shu bilan birga, investitsiyalarning rentabelligini nafaqat natijalar bo'yicha, balki uni amalga oshirishni boshlashdan avval aniqlash maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadlar uchun moliyaviy hisobotdagi umumiy ma'lumotlar asosida hisoblanishi mumkin bo'lgan maxsus ko'rsatkich, ya'ni investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti yoki uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, korxonalarining qaysi qismini barqaror manbalardan – o'z mablag'lari va uzoq muddatli majburiyatlardan shakllantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi.

Investitsiyalarni qoplash ko'rsatkichi investitsiya obyektining moliyaviy barqarorligini baholashga imkon beradi. Agar loyiha likvidlik darajasi past bo'lgan aktivlar yoki qisqa muddatli majburiyatlar bilan qo'llab-quvvatlansa, unga sarmoya kiritish riskli deb hisoblanishi mumkin.

Agar hisob-kitoblar natijalari bo'yicha olingan koeffitsiyent qiymati tartibga solish oralig'ida bo'lib chiqsa, u holda loyihaga yoki biznesga investitsiyalar past darajadagi xavf bilan tavsiflanadi. O'z mablag'lari va uzoq muddatli majburiyatlar investitsiya objekti uchun ishonchli xavfsizlik manbai sifatida ko'rib chiqilishi mumkin: ular kamida 12 oy davomida kompaniya ixtiyorida bo'ladi. Joriy majburiyatlarni qoplash uchun ularni zudlik bilan loyihadan olib qo'yish shart emas.

Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyentini hisoblash uchun ma'lumotni ochiq moliyaviy hisobotlardan olish mumkinligi sababli, ko'plab kredit tashkilotlari ushbu ko'rsatkichdan korxonaga kredit berish xavfini baholash uchun foydalanadilar.

Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyentining o'zgarishi omillari<sup>49</sup>

№	Koeffitsiyent kamayadi	Koeffitsiyent oshadi
1.	Korxonada joriy hisoblarini to'lay olmagan holatda	Joriy majburiyatlarni to'lash korxonaning barqaror moliyaviy holatini yo'qotishiga olib kelmaydi
2.	Qisqa muddatda korxonada aktivlarini realizatsiya qilish qiyinlashgan holatda	Likvid aktivlar bazasi kengaygan holatda (joriy, tezkor, mutlaq likvidlik ko'rsatkichlari oshganda)
3.	Majburiyatlarni 12 oy ichida to'lash talab qilinganda	Muddati 1-yildan ortiq bo'lgan majburiyatlar hajmi o'sib borishi jarayonida

Investitsiya – bu kapital egasidan moliyalashtirish jarayonini aniqlashda iloji boricha ehtiyot bo'lishni talab qiladigan murakkab ish bo'lganligini inobatga olgan holda moliyaviy tahlil investitsiyalarni qoplash koeffitsiyentining aniq me'yoriy qiymatini ta'minlaydi, bu esa investitsiyalar samaradorligini baholashga imkon beradi.

Investitsiya qilingan mablag'larni qamrab olish koeffitsiyentini tahlil qilish bir nechta muhim omillarni hisobga olishni talab qiladi:

agar ko'rsatkich 0,9 dan yuqori bo'lsa, unda investitsiya obyekti ishonchli deb hisoblanishi mumkin, ammo bu qisqa muddatli qarzni moliyalashtirish manbalaridan yetarli darajada samarali foydalanilmaganligidan dalolat beradi;

agar ko'rsatkich optimal (0,6-0,7) qiymatga yaqin bo'lsa, unda investitsiya qilingan mablag'larni yo'qotish ehtimoli faqat sezilarli tashqi zarbalar (sheriklarning insofsizligi, valyuta kursining o'zgarishi va hokazo.).

Agar korxonada o'z pullarini erkin tasarruf eta olsa, undan samarali foydalana olsa, xizmatlar yoki tovarlarni uzluksiz ishlab chiqarish va sotish uchun o'rnatilgan mexanizmga ega bo'lsa, unda biz bunday korxonani moliyaviy barqaror deb hisoblashimiz mumkin.

2. Kapitallashuv koeffitsiyenti. Kapitallashuv koeffitsiyenti 1 so'm kapital uchun qancha qarz mablag'lari hisoblanganligini ko'rsatadi. Uzoq muddatli kreditorlik qarzlari hajmini uzoq muddatli moliyalashtirishning umumiy manbalari

<sup>49</sup> Muallif tomonidan tuzildi

bilan taqqoslaydigan ko'rsatkich bo'lib, ular uzoq muddatli kreditorlik qarzlardan tashqari tashkilotning o'z kapitalini ham o'z ichiga oladi.

Kapitallashuv koeffitsiyenti korxonaning o'z faoliyatini moliyalashtirish manbasining kapital shaklida yetarliligini baholashga imkon beradi. Ularning haqiqiy nisbatini shakllantirish uchun standart qiymati 1-1,5 oralig'ida barcha tarmoqlar uchun bir xil bo'lgan kapitallashuv koeffitsiyentini aniqlash muhimdir.

Ko'rsatkichning pasayishi korxonada moliyaviy holatining mustahkamlanishidan dalolat beradi va uning o'sishi qarzni moliyalashtirishga bog'liqligining oshishini aks ettiradi.

Ushbu koeffitsiyent tadbirkorlik xavfini baholashga imkon beradi. Koeffitsiyent qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, tashkilot uning rivojlanishida qarz kapitaliga qanchalik bog'liq bo'lsa, moliyaviy barqarorlik shunchalik past bo'ladi.

Shu bilan birga, yuqori koeffitsiyent darajasi kapitalning mumkin bo'lgan rentabelligini (kapitalning yuqori rentabelligini) ko'rsatadi. Biroq, faqat o'z moliyalashtirish manbalaridan foydalanish ham ijobiy omil emas, chunki u egalarining investitsiyalari daromadlilikini kamaytiradi.

Shuningdek, kapitallashuv koeffitsiyenti korxonaning moliyaviy barqarorligi va uning uzoq muddatli to'lov qobiliyatining moliyaviy ko'rsatkichi bo'lib, u umumiy majburiyatlarni kapitalga bo'lish (kapitallashuv) yo'li bilan hisoblanadi.

Bu bizga quyidagilarni baholash imkonini beradi: korxonaning asosiy biznesini qo'llab-quvvatlash uchun o'z mablag'lari qay darajada ekanligini hamda o'z kapitalini qanchalik samarali taqsimlanishini va ishlatilishini ko'rsatadi.

3. Qisqa muddatli qarz nisbati koeffitsiyenti. Qisqa muddatli qarz nisbati korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarining tashqi majburiyatlarning umumiy hajmidagi ulushini ko'rsatadi (qarzning umumiy miqdorining ulushi qisqa muddatli to'lashni talab qiladi).

Koeffitsiyentni oshirish: tashkilotning qisqa muddatli majburiyatlarga bog'liqligini oshiradi; to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun aktivlarning likvidligini oshirishni talab qiladi.

Ushbu ko'rsatkich qanchalik past bo'lsa, xolding kompaniyasi yoki uning sho'ba korxonasi qarz shunchalik kichik hisoblanadi va uning moliyaviy holati barqaror bo'ladi.

Shu sababli, ushbu ko'rsatkich korxonaning joriy majburiyatlarining umumiy majburiyatlardagi ulushi vaqt o'tishi bilan yomonlashayotganini yoki yaxshilanayotganini ko'rish uchun yuqori chizig'ini kuzatishda eng foydalidir.

Bu faqat likvidlikning taxminiy o'lchovidir, chunki u korxonaning katta yoki kichik qarz bo'lsin, o'z majburiyatlarini to'lash qobiliyatini ko'rsatmaydi.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarining o'zaro bog'liqlik jihatlari o'rganish natijasida, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti korxonaning pozitsiyasi qanchalik barqarorligini va yaqin kelajakda moliyaviy muammolar unga tahdid soladimi yoki yo'qligini ko'rsatishini hamda korxonaning moliyalashtirishning qancha uzoq muddatli va barqaror manbalari borligini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, moliyaviy barqarorlikning ko'pgina koeffitsiyentlari tahlilidan o'rgangan holda va korxonaning moliyaviy holatini kengroq aks ettirish maqsadida mutlaq ko'rsatkichlarga qo'shimcha sifatida kimyo sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun quyidagi koeffitsiyentlar bilan tahlil qilish mumkin (2.1-jadval).

Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi korxonaning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanish qobiliyatini aniqlashga yordam beradigan bir qator asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq va birgalikda korxonaning moliyaviy barqarorligini, uning moliyaviy nochorlik xavfini va uzoq muddatli rivojlanish potentsialini baholashga yordam beradi.

Ushbu ko'rsatkichlarning ba'zilariga quyidagilar kiradi:

1. Joriy koeffitsient: korxonaning mavjud mablag'lar bilan joriy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aks ettiradi.

2. O'z aylanma aktivlari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti: korxonaning umumiy aktivlaridagi o'z aylanma mablag'larining ulushini o'lchaydi va uning

joriy majburiyatlarni qarz mablag‘laridan foydalanmasdan qoplash qobiliyatini ko‘rsatadi.

**2.2-jadval**

**Korxonalarining moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari tasnifi<sup>50</sup>**

T/R	Koeffitsiyentlar nomi	Hisoblanishi	Me‘yor darajasi
1.	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti	Pul mablag‘lari + Qisqa muddatli qo‘yilmalar / Qisqa muddatli majburiyatlar	0,2 dan yuqori (optimal daraja 0,2-0,35)
2.	To‘lov qobiliyati (joriy likvidlilik) koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	<b>min 1,25</b>
3.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	O‘z mablag‘lar manbalari / Balans aktivi bo‘yicha jami	0,5 dan yuqori, (optimal daraja 0,65-0,75)
4.	O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti	O‘z mablag‘lar manbalari / Qisqa muddatli majburiyatlar	1 dan yuqori
5.	O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / O‘z mablag‘lar manbalari	0,1 dan yuqori
6.	Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	Mahsulotlarni sotishdan sof tushum / Debitorlar	Max
7.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	Mahsulotlarni sotishdan sof tushum / Kreditorlik qarzlari	Max
8.	Balans foyda me‘yori koeffitsiyenti	Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi / Mahsulot sotishdan sof tushum	Max
9.	Sof foyda me‘yori koeffitsiyenti	Sof foyda / Mahsulot sotishdan sof tushum	Max
10.	Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti	Uzoq muddatli aktivlar + O‘z kapitali / Jami kapital	0,6 – 0,9
11.	Kapitallashuv koeffitsiyenti	Uzoq muddatli majburiyatlar + qisqa muddatli majburiyatlar / o‘z kapitali	1 – 1,5
12.	Qisqa muddatli qarz nisbati koeffitsiyenti	Qisqa muddatli majburiyatlar / Jami majburiyatlar	0,5 – 0,7

3. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti: korxonaning umumiy kapitalidagi o‘z kapitalining ulushini belgilaydi va uning foyda olish qobiliyatini va moliyaviy risklarga chidamliligini ko‘rsatadi.

4. Sotish rentabelligi koeffitsiyenti: korxonaning rentabelligini va uning mahsulot yoki xizmatlarni sotishdan foyda olish qobiliyatini aks ettiradi.

5. Foizlarni qoplash koeffitsiyenti: korxonaning o‘z foydasidan olingan qarz mablag‘lari bo‘yicha foizlarni to‘lash qobiliyatini belgilaydi.

<sup>50</sup> Burxonov A.M. Sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini baholash usuli nomli maqolasidan. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali. 2018 yil №6 noyabr -dekabr.

6. Aktivlar aylanmasi koeffitsienti: korxonaning sotish va foyda olish uchun aktivlardan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi.

### 2.3-jadval

#### Korxonada moliyaviy barqarorligini baholash ko'rsatkichlarining tizimi<sup>51</sup>

Ko'rsatkichlar	Hisoblash formulasi	Izohlash
A	1	
1. Gurux. To'lovga qodirlik ko'rsatkichlari		
Mutloq likvidlik koeffitsiyenti	Pul mablag'lari + qimmat baxo qog'ozlar.	Joriy majburiyatlarni likvidligi yuqori aktivlar bilan qoplanishi
	Qisqa muddatli majburiyatlar	
Tez likvidlik koeffitsiyenti	Pul mab-qisqa mud. Deb. lag'lari + inves-ya+ qarz	Debitorlik qarzlarni undirgan xolda prognozda to'lovga qodirlik
	Qisqa muddatli majburiyatlar	
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Joriy aktivlar	Joriy majburiyatlarni oborot mablag'lari bilan qoplanishi
	Qisqa muddatli majburiyatlar	
Sof oborot aktivlar	Oborot aktivlari – qisqa muddatli majburiyatlar	O'z kapitali bilan shakllangan oborot mablag'lar miqdorini ifodalaydi
2. Gurux. Kapital strukturasi ko'rsatkichlari		
Avtonomiya koeffitsiyenti	O'z kapitali	Jami aktivdagi o'z mablag'larining ulushini ifodalaydi
	Balans aktivi	
Doimiy aktivlar koeffitsiyenti	O'z kapitali + uzoq muddatli majburiyatlar	Barqaror passivlar hisobidan moliyalashtiriladigan aktivlar ulushini ifodalaydi
	Balans aktivi	
Qarz va o'z kapitali nisbat koeffitsiyenti	Qarz kapitali	Chetdan jalb etilgan mablag'lar bilan o'z resurslarining nisbatini ifodalaydi
	O'z kapitali	
Moliyalashtirish koeffitsiyenti	O'z kapitali	Qarz kapitalini qancha qismi o'z kapitali bilan qoplanadi?
	Qarz kapitali	
Sof aktivlar	Hisoblashda ishtirok etadigan aktivlar – hisoblashda ishtirok etadigan passivlar	O'z kapitalining mavjud miqdori va ular bilan ta'minlanishi
Zaxiralarni qoplashdagi mablag'lar manbaini ortiqcha (yetishmasligi)	Mablag'lar manbaini miqdori – zaxira miqdori	Zaxiralarni ayrim turdagi manbalar bilan qoplanish

<sup>51</sup> Mallif ishlanmasi



	3. Gurux. Asosiy vositalar va aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar		
	Oborot aktivlarini o'z mablag'lari bilan qoplanish koeffitsiyenti	O'z aylanma mablag'lari	Oborot aktivlarini o'z aylanma mablag'lari bilan qoplanishdagi ulushi
		Oborot aktivlari	
	Zaxiralarni o'z mablag'lari bilan qoplanish koeffitsiyenti	O'z aylanma mablag'lari	Zaxirani qoplanishdagi o'z kapitalining ulushini ifodalaydi
		Zaxiralar	
	O'z kapitalining xarakatchanlik koeffitsiyenti	O'z aylanma mablag'lari	O'z kapitalidagi o'z aylanma mablag'larining ulushini ifodalaydi
		O'z kapitali	
	Oborot aktivlarini uzoq muddatli aktivlarga nisbat koeffitsiyenti	Oborot aktivlar	Uzoq muddatli aktivlarning har so'miga to'g'ri keladigan oborot aktivlarini ifodalaydi
		Uzoq muddatli aktivlar	

Korxonalarni isloh qilish va bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy o'sishning zarurati tufayli xo'jalik subyektlarini likvidligi, to'lovga qodirlik va bozor faolligini tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Korxonada balansidagi moddalarni pulga aylanishi aktiv likvidligi, to'lovga qodirlik (to'lov qobiliyati) esa muddatida va to'liq hajmda qarzlardan uzulishni ifodalaydi.

To'lovga qodirlikning zarur va muhim sharti likvidlikdir.

“To'lovga qodirlik” so'zi keng ma'noni anglatadi, chunki u aktivdagi moddalarni tez pulga aylanishidan tashqari, savdo, kredit va boshqa pul muomalalari bilan bog'liq majburiyatlarni muddatida va to'liq hajmda bajara olish qobiliyatini ham ifodalaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarining erkin faoliyat yuritishida bankrotlik holatiga tushish va sinish xavfidan saqlanish maqsadida balans likvidligi tahlili natijalaridan foydalaniladi. Tahlil etish uchun balansidagi moddalarni pulga aylanish muddati passividagi moddalarning qarzni uzish muddatlari bilan taqqoslanadi. Bunday taqqoslik natijasiga ko'ra balansidagi moddalarni

sotishidan kelgan tushumi korxonaga qarzlari (majburiyatlari)ni uzishi uchun yetarli bo'lsa balans likvidlikka ega deb hisoblanadi.

## 2.4-jadval

### “Kvars” AJda 2-sho'ba korxonasida 2021-yilga balans likvidligi tahlili

Shartli belgi	Balansning aktiv va passiv qismlari	Mutloq miqdor, mln. so'm		O'zgarishi (+,-)
		Yil boshi	Yil oxiri	
A <sub>1</sub>	Aktiv			
	Doimiy xarakatdagi aktivlar pul mablag' lari qisqa muddatli investitsiyalar	546,7	709,3	+162,6
A <sub>2</sub>	Tez sotiluvchan aktivlar debitorlik qarzlari (muddati o'tgandan tashqari) boshqa joriy aktivlar	705,0	1844,7	+1139,7
A <sub>3</sub>	Sekin sotiluvchan aktivlar zaxira va harajatlar uzoq muddatli investitsiyalar sho'ba xo'jalik jamiyatlaridagi aksiyalar va ularga berilgan qarzlari qaram xo'jalik jamiyatlaridagi aksiyalar va berilgan qarzlari, boshqa qarzlari	3150,0	4100,6	+950,6
A <sub>4</sub>	Qiyin sotiladigan aktivlar - asosiy vositalar - muddati o'tgan debitorlik qarzlari	3342,8	3889,1	+546,3
P <sub>1</sub>	Passiv			
	O'ta tez muddatli majburiyatlar - kreditorlik qarzlari	2199,6	3452,7	+1253,1
P <sub>2</sub>	Qisqa muddatli majburiyatlar - qisqa muddatli kredit va qarzlari	751,6	957,6	+206,0
P <sub>3</sub>	Uzoq muddatli majburiyatlar - uzoq muddatli kredit va qarzlari	1092,7	1428,1	+335,4
P <sub>4</sub>	O'z kapitali -o'z mablag' larini manbai	3700,6	4705,3	+1004,7

Balans likvidligini tahlil etish uchun uning aktividagi moddalarni pulga aylanish muddatlari, passividagi moddalarni qarzlarni uzish muddatlari bo'yicha quyidagi guruxlarga ajratiladi.

Balans mutloq likvidlikka ega bo'lishi uchun ko'rsatkichlar kuyidagi ko'rinishga ega bo'lishi kerak.  $A_1 \geq \Pi_1, A_2 \geq \Pi_2, A_3 \geq \Pi_3, A_4 \leq \Pi_4$ . Yuqorida keltirilgan shartlardan uchtasi bajarilsa  $A_1 \geq \Pi_1, A_2 \geq \Pi_2, A_3 \geq \Pi_3$  korxonaning joriy

aktivlari uning tashqi majburiyatlaridan yuqoriligini ifodalaydi. Bunda albatta  $A_4 \leq \Pi_4$ , ya'ni o'z mablag'larining manbai uzoq muddatli aktivlardan katta bo'ladi.

Aylanma mablag'larni moliyalashtirishda hamon kreditorlik qarzlari salmoqli o'rinni egallaydi. Shu bilan birga qisqa muddatli kredit va qarzlarni ham yil oxiriga kelib biroz ortgan. Mutloq ko'rsatkichlarga nisbatan korxonaning likvidligini baholashda quyidagi nisbiy ko'rsatkichlar aniq ifodalaydi:

- mutloq likvidlik koeffitsiyenti;
- oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti;
- joriy likvidlik koeffitsiyenti.

Mutloq likvidlik koeffitsiyenti to'lov qobiliyatining qat'iy me'yori qisqa muddatli majburiyatlarni darhol mavjud pul mablag'lari bilan qoplanishidir. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, qarzni uzish kafolati shuncha yuqori bo'ladi. O'z miqdordagi mablag'ga ega bo'lib, pul mablag'larini kirimi va chiqimini muddati va miqdorini nazorat qilish orqali balans likvidligini ta'minlagan holda korxonaning doimiy ravishda to'lovga qodir bo'lishi mumkin. Mutloq likvidlik koeffitsiyentining, ya'ni pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalarni qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashning yil boshi va yil oxiridagi natijalari biroz tavsiya etilgan me'yorlarga yaqin.

Oraliq qoplash likvidlik koeffitsiyenti joriy qarzlarni qancha qismi (zaxiralarsiz) debitorlik qarzlarni to'liq undirilgan holda qoplay olishini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich darajasi 0,5 dan 1,0 gacha va undan yuqori bo'lishi korxonaning faoliyat turi, joriy aktivlarining strukturasi va debitorlik qarzlarni sifati va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarning nisbatiga: sotish hajmi bilan aylanma mablag'lar, sotish hajmi va debitorlik qarzlarni, oborot aktivlari va qisqa muddatli majburiyatlarga bog'liq. Debitorlik qarzlarni yuqori hajmda va jami mablag'larda salmoqli ulushga ega bo'lishi korxonaning to'lovga qodirligini amalda pasayishiga olib keladi.

**Korxonalar likvidligi va to'lov qobiliyatini baholashdagi moliyaviy koeffitsiyentlar<sup>52</sup>**

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy mazmuni	Hisoblash formulasi	Tavsiya etiladigan me'yor va uning ahamiyati
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Jami qisqa muddatli majburiyatlarni qancha qismi oborot aktivlari bilan qoplanishini ifodalaydi	Oborot aktivlari	1 dan 2 gacha, quyi chegarasi qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga oborot mablag'lari yetarli bo'lishi kerak. Chegarani 2 dan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq emas, chunki mablag'lar noratsional joylashgan, ulardan samarasiz foydalanilganlikni ifodalaydi
		Qisqa muddatli majburiyatlar	
Oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti	Debitorlik qarzlarni undirish hisobiga korxonani qodirlik istiqbolini ifodalaydi	Pul Qisqa mablag'lar muddatli+ Deb.qarzli+ investitsi	0,5 dan 1 gacha, quyi chegarasi doimiy ravishda debitorlarni nazorat qilib turishni, aylanma mablag'larni bir qismini mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishga yetarli bo'lishini ta'minlashi zarur
		Qisqa muddatli majburiyatlar	
Mutloq Likvidlik koeffitsiyenti	Qisqa muddatli majburiyatlarni qancha qismi mavjud pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar bilan qoplanishini ifodalaydi	Qisqa Pul + muddatli mablag'lari investitsiyalar	0,2 dan 0,5 gacha, quyi chegarasi korxonalar to'lov qobiliyati pasayganligini ifodalaydi
		Qisqa muddatli majburiyatlar	

Likvidlikni tahlil etishda debitorlik qarzlarni miqdori va sifatiga katta e'tibor qaratiladi, chunki ularni to'lov manbalariga aylanishi uchun ketadigan vaqt uzoq muddatni tashkil etadi, inflyatsiya tufayli yana qo'shimcha yo'qotishlarga duch keladi. Bizning misolimizda oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti yil boshi va yil oxirida tavsiya etilgan me'yordan kichik.

<sup>52</sup> Muallif ishlanmasi

Ammo, korxonani rahbariyati debitorlik qarzlari bilan ishlashni faollashtirib bu shakldagi oborot mablagʻlarni pul shaklida muomalaga kiritilishini tezlashtirish orqali mol yetkazib beruvchilar bilan boʻladigan hisoblashishni amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Joriy likvidlik (qoplash) koeffitsiyenti yoki umumiy qoplash koeffitsiyenti:

- joriy qarzlarning qancha qismi joriy aktivlar bilan qoplanishini;
- joriy majburiyatlarning har soʻmiga necha soʻmlik joriy aktivlar (aylanma mablagʻlar) qiymati toʻgʻri kelishini;
- joriy majburiyatlarni jami aylanma mablagʻlari bilan qoplanish darajasini ifodalaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti korxonani chiqargan aksiyalari va obligatsiyalarini xarid etgan subyekt va jismoniy shaxslar uchun muhim koʻrsatkich hisoblanadi. Aksiyadan olinadigan dividendlar miqdori, obligatsiyalardan foizlar joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasiga bogʻliqdir. Joriy aktivlarni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatan yuqori boʻlishi rezerv zaxirasini hosil qiladi. Rezerv zaxirasi korxonani zarar koʻrganda qoplashga sarflanadi. Bu koʻrsatkichni qanchalik yuqori boʻlishi kreditorlarda qarzni uzishga boʻlgan ishonchini taʼminlaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyentining meʼyor koʻrsatkichi 1 dan 2 gacha hisoblanadi. Ammo, barcha tarmoqlar uchun yagona meʼyor belgilanishi maqsadga muvofiq emas. Chunki, bu koʻrsatkich darajasi korxonaning faoliyat turi, uning tuzilishi va balans aktivining sifati, operatsion jarayon davomiyligi, debitorlik qarzlarni qoplanish muddatlari va h.k. larga bogʻliq. Joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasining hisob – kitobiga koʻra likvidlik yil boshi va yil oxirida meʼyor darajasida, uning oʻsish surʼati 1,08 koeffitsiyentni tashkil etgan.

Ammo, joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi koʻp jihatdan zaxiralarni tashkil etish manbalari uzoq muddatli majburiyat va korxonaning oʻz kapitaliga bogʻliq. Uning darajasini oshirish uchun oʻz kapitalini manbalar bilan toʻldirish, aktivlar va debitorlik qarzlari oʻsishini turgʻun holda saqlashdan iborat. Mazkur koʻrsatkichdan korxonani aktivliklikligini baholash va uzoq muddatli istiqbolda

to'lovga qodirligini aniqlashda foydalaniladi. Oborot aktivlarini qisqamuddatli majburiyatlardan ikki marotaba ortiq bo'lishi korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy holatini barqaror o'sishi uchun zamin yaratadi. Buning natijasida ishchi kapitali yoki "sof oborot aktivi" shakllanadi.

Ishchi kapitali likvid rezervlari hisoblanib, kutilmagan hollarda vujudga keladigan pul tushumlari va qarz majburiyatlari o'rtasidagi uzilishlar tufayli vujudga keladigan harajatlarni qoplashga sarflanadi. Sof ishchi kapitali sof aktivning bir qismi, bank-kreditorlar uchun bank kreditini korxonaga qaytara olmagan hollarda undan garov sifatida foydalanadilar.

## 2.6-jadval

### 2021-yilda "Kvars" AJ 3-sho'ba korxonasida sof oborot aktivlarini aniqlash tartibi<sup>53</sup> (mln.so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)
1	Oborot aktivlari	3411,3	5550,0	+2138,7
2	Qisqa muddatli majburiyatlar	2951,2	4410,3	+1459,1
3	Sof oborot aktivlari (1satr-2satr)	460,1	1139,7	+679,6

Jadvalda oborot aktivlarni qisqa muddatli majburiyatlar bilan qoplanishining hisob– kitobi keltirilgan, uning natijasiga ko'ra oborot aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlardan ortiqchaligi yil boshida 460,1 mln. so'mni, yil oxiriga kelib 1139,7 mln. so'mni tashkil etgan. Sof oborot aktivining mutloq summada dinamik tarzida o'zgarishi likvidlik darajani ham o'zgarishiga olib keladi. Bu ko'rsatkich qisqa muddatli majburiyatlarni qoplanishidan so'ng hosil bo'lgan ortiqcha miqdorni ifodalaydi. Demak, bu ko'rsatkichni o'sishi korxonaga likvidligini barqarorlanishini ifodalaydi.

Korxonaga moliyaviy barqarorligini ifodalashdagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri joriy aktivlarni o'z oborot mablag'lari bilan qoplanish

<sup>53</sup> Muallif ishlanmasi

koeffitsiyentidir. Mazkur koeffitsiyent ko'p holatlarga bog'liq. Uning miqdori va dinamikasi xususida xalqaro hisob– tahlil amaliyotida umumiy tavsiyalar belgilanmagan. Bizning mamlakatimizda bu ko'rsatkichning normativi 0,1.

Demak, korxonalar balansini tuzilishi qoniqarli, moliyaviy barqarorlikka erishish uchun joriy aktivlarni 10 foizini o'z oborot mablag'lari tashkil etishi zarur.

## **2.2. Korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashning mukammal tizimi uslubiyotini ishlab chiqish**


Korxonalar moliyaviy holatini baholovchi bir qator mutlaq (absolyut) ko'rsatkichlar mavjud. Bular jumlasiga korxonaning to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi, korxonalar balansini yoki aktivlarning likvidlilik darajasi va boshqa qator ko'rsatkichlar kiradi.

Ma'lumki, korxonalar moliyaviy holatini xususiyatlashda absolyut ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko'rsatkichlardan ham keng foydalaniladi.

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti korxonada o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini navbatdagi yil davomida uzish uchun mablag'larning yetarli yoki yetarli emasligini aks ettiradi va barcha aylanma mablag'larni yil davomida qaytarilishi lozim bo'lgan qisqa muddatli majburiyatlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Aylanma mablag'larning eng likvidli qismining (ya'ni moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini hisobga olmasdan) qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatini ochib beradigan ko'rsatkich muddatli likvidlilik koeffitsiyenti hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy holati ko'rsatkichlari tizimini ikkita yirik guruhga: absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarga bo'lib o'rganish mumkin (2.5- rasm).




**2.5-rasm. Korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar<sup>54</sup>**

Korxonaning moliyaviy holatini xususiylovchi nisbiy ko'rsatkichlarning eng asosiylariga to'xtalib o'tamiz

1. Likvidlikni xususiylovchi ko'rsatkichlar. Bu guruhga kiruvchi ko'rsatkichlar, asosan, korxonaning qisqa muddatli qarzlarni to'lashga bo'lgan qobiliyatini tavsiflaydi va o'z ichiga joriy, muddatli va absolyut likvidlik hamda sof aylanma mablag'lar hajmi ko'rsatkichlarini oladi (2.6-rasm).

<sup>54</sup> Muallif ishlanmasi





**2.6-rasm. Likvidlilik darajasini xususiyatlovchi ko'rsatkichlar<sup>55</sup>.**

Mutlaq yoki absolyut likvidlilik koeffitsiyenti pul mablag'larining qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati orqali hisoblanadi.


Sof aylanma mablag'lar (ish sarmoyasi) aylanma mablag'larning umumiy qiymatidan qisqa muddatli majburiyatlarni chegirish orqali aniqlanadi va umumiy holatda korxonaning o'sishga bo'lgan potensial qobiliyatini tavsiflaydi.

Korxonaning sarmoyasi tuzilmasini xususiyatlovchi ko'rsatkichlar asosan korxonaning uzoq muddatli qarzlarni to'lashga bo'lgan qobiliyatini tavsiflaydi va o'z ichiga moliyaviy bog'liqlik, mulkiy mustaqillik va kreditorlarning himoyalanganlik darajasi ko'rsatkichlarini oladi. Moliyaviy bog'liqlik ko'rsatkichi korxonaning tashqi qarzlarga bog'liqligini tavsiflaydi.

O'z sarmoyasi aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga nisbatan 60 foizlik darajani tashkil etadigan nisbat boshqa barcha shart-sharoitlar bir xil bo'lgan holda investorlar va kreditorlar nazarida lozim darajadagi barqaror moliyaviy ahvolni ta'minlaydigan mulkiy mustaqillik ko'rsatkichiga erishilganligini xususiyatlaydi.


Kreditorlarning himoyalanganligi ko'rsatkichi kreditorlarning krediti uchun foizlarning to'lanmasligidan himoyalanganlik darajasini ifodalaydi (2.7-rasm).

<sup>55</sup> Muallif ishlanmasi



**2.7-rasm. Korxonalar sarmoyalari tuzilmasini xususiyatlovchi ko'rsatkichlar<sup>56</sup>.**

Ishchan faollik va rentabellik ko'rsatkichlari resurslardan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. Aktivlarning aylanuvchanligi, debitorlik va kreditorlik qarzlari, moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining har xil ko'rsatkichlari ishchan faollikning asosiy ko'rsatkichlariga kiradi. (2.8-rasm).




**2.8-rasm. Ishchan faollikni xususiyatlovchi ko'rsatkichlar<sup>57</sup>.**

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonalar faoliyati u yoki bu sohasining qanchalik foydaliligini aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlar olingan sof foydaning foydalaniladigan aktivlarga yoki sotilgan mahsulot hajmiga, yohud o'z sarmoyasiga nisbati sifatida hisoblab chiqariladi.

<sup>56</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>57</sup> Muallif ishlanmasi

2.9-rasmda keltirilgan ko'rsatkichlar rentabellikning eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlari hisoblanadi.



**2.9-rasm. Korxonada faoliyatining turli jabhalari rentabellik darajasini xususiyatlovchi ko'rsatkichlar<sup>58</sup>**

Korxonada barcha aktivlarining rentabelligi sof foydani korxonada aktivlarining yillik o'rtacha qiymatiga bo'lish orqali hisoblanadi.

Mahsulot sotish rentabelligi foydani sotilgan mahsulot hajmiga bo'lish orqali hisoblanadi.

Korxonada o'z sarmoyasining rentabelligi mulkdorlar sarmoyasidan foydalanish samaradorligini belgilash imkonini beradi.


Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini pul resurslari bilan ta'minlash va bunda to'lov majburiyatlarini bajarish layoqati korxonaning moliyaviy holatini baholaydi. Korxonada moliyaviy holatining tahlili uning faoliyatini kompleks baholashning eng muhim qismi bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy holatni tahlil qilishga kirishishda iqtisodiy tahlilni ichki va tashqi tahlilga ajratib olish lozim. Ichki tahlil joriy hisobot va ichki hisobot ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Tashqi tahlil esa umuman korxonada faoliyatining tahlilidan iborat.

Moliyaviy holatning tashqi tahlili rasmiy hisobot ma'lumotlari asosida kapital samaradorligi, foydaning absolyut ko'rsatkichlari, rentabellik ko'rsatkichlari, likvidlilik, to'lov qobiliyati va barqarorligi, o'zlik va qarzga

<sup>58</sup> Muallif ishlanmasi

olingan kapital va boshqalarning tahlilini o'z ichiga oladi. Moliyaviy holatning ichki tahlili esa bundan tashqari yana boshqaruv tahliliga kiruvchi ichki xo'jalik ishlab chiqarish tahlilining bir qator ko'rsatkichlarini ham qamrab oladi. Ushbu fikrni yanada aniqroq ifodalasak, moliyaviy holatning tashqi tahlili balans likvidligi va moliyaviy koeffitsiyentlarni xususiyatlashda qo'llanilsa, ichki tahlil obyektini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida balans likvidligini baholash uchun zaxira va harajatlar tahlilini hamda debitorlik-kreditorlik qarzlari tahlilini ham qamrab oladi (2.10-rasmga qarang).



**2.10-rasm. Moliyaviy holat tahlili uslubining tarkibiy ko'rinishi<sup>59</sup>**

Korxonada noxush moliyaviy holatning dastlabki belgilariga quyidagilar kiradi: sotish hajmi o'zgarmagan holda mehnatga haq to'lash harajatlarning o'sishi; kreditor (haqdor)lar soniga nisbatan qarzdorlar sonining tezroq o'sishi; sotish hajmi o'zgarmagan holda moddiy zapaslar darajasining o'sishi; korxonada taraqqiyoti harajatlari hajmining o'sishi; sotish hajmining pasayishi; foiz

<sup>59</sup> Muallif ishlanmasi

stavkalari o'rtacha bozor darajasining o'sishi; maxsus qarzlarni qoplash uchun rezervlarning ortishi; o'z faoliyati haqida noaniq tahminlar tuzish; qarzdorlar uchun to'lov muddatining kechiktirilishi; ishlab chiqarish sikli muddatining ortishi; mahsulot sotish hajmi o'zgarmagani holda sarmoyachilar uchun to'lovlarning oshirilishi va h.k.

Korxonada faoliyatiga oid ayrim boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi moliyaviy holatni qisqa muddatga yaxshilash imkonini beradi. Bunday tadbirlar tizimida qator dolzarb choralarni ajratib ko'rsatish mumkin: korxonada qarzlarning to'lanishida to'lov muddatlarining kechiktirilishiga erishish; ish haqi berilishida qat'iy tartib saqlash; ta'sischi uchun dividendlarni qayta investitsiya qilish; soliq imtiyozlaridan foydalanish; imtiyozli qarzlarni jalb etish; ishlab chiqarish zapaslaridan moddiy boyliklar sotilishini ta'minlash; ortiqcha asosiy vositalarni sotish; boshqaruv-ma'muriy xodimlarini qisqartirish.

Shunday qilib, ayrim moliyaviy ko'rsatkichning boshqa ko'rsatkichlar o'zgarishi xususiyatiga mos holda yaxshilanishi yoki yomonlashuvi korxonada moliyaviy holatiga berilgan bahoni o'zgartirishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlar korxonada moliyaviy holatini sifatli baholashning naqadar murakkabligini anglash imkoniyatini beradi, shuning uchun rivojlangan bozor tizimi sharoitida korxonalar alohida investorlar, maxsus tashkilotlar qarorlaridan ko'ra ko'proq o'zlarining xususiy kuzatishlari va tahlili natijalariga asoslanmoqdalar.

Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida aloqa sanoati korxonalarida misolida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tizimini shakllantiramiz.

"O'z kimyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va jamiyat boshqaruvi organlarining mustaqilligi va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish;

kimyo tarmog'i korxonalarining faoliyati samaradorligini oshirish va moliyaviy holatini yanada yaxshilash;

Bosqichma-bosqich tarmoq korxonalari ustav kapitalidagi davlat va “O‘z kimyosanoat” AJ ulushlarini sotish belgilab berilgan.

Oxirgi uch yilda sohada yangi yirik obyektlar foydalanishga topshirildi, jo‘mladan:

2018-yilning 4-choragida Toshkent viloyatida “Angren” maxsus sanoat zonasida “Konveyer lentalari, qishloq xo‘jaligi va avtomobil shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasi Xitoyning “Poly Technologies” kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi.

2019-yilda “Navoiyazot” AJda Xitoyning “CAMCE Engineering” va “HQC Shanghai” kompaniyalari konsorsiumi bilan birgalikda 100 ming tonna PVX, 75 ming tonna kaustik soda va 300 ming tonna metanol ishlab chiqaradigan zamonaviy kompleksni foydalanishga topshirildi.

Tovar mahsuloti hajmi 2020-yilda amaldagi narxlarda 7,3 trln so‘m tashkil etib (o‘shish sur‘ati 108,2%), 2017-yilga nisbatan 2,7 barobarga oshdi (2017-yilda 2,7 trln. so‘m), respublika YAIMda (yalpi ichki mahsuloti) kimyo mahsulotlarining ulushi 1,3 foizni tashkil etdi yoki 2017-yilga nisbatan (0,9 foiz) 0,4 bandga oshgan.

Moliyaviy barqarorlikning mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlari orqali kimyo sanoati korxonalari moliyaviy barqarorligini oqilona baholash va ular korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, uni oshirish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy barqarorlikni baholashning yuqoridagi ko‘rsatkichlarga tayangan holda mamlakatimizdagi kimyo sanoati korxonalaridan biri bo‘lgan, “O‘z kimyosanoat” AJ sanoati tarkibiga kiruvchi “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorlik darajasiga baho beramiz.

**“Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari<sup>60</sup>, (ming so‘mda)**

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar				
		2017	2018	2019	2020	2021
1.	Pul mablag‘lari	5220696	29855703	21248997	38747733	23074021
2.	Qisqa muddatli qo‘yilmalar	3516155,01	481196,01	1509215,01	588766,01	27024,01
3.	Qisqa muddatli majburiyatlar	494702110	601613836	179498876	354078271	372329081
4.	Joriy aktivlar	505690852	553796521	316039355	508202722	602930894
5.	O‘z mablag‘lar manbalari	199680595	267029661	415592165	490589037	661769729
6.	Balans aktivi bo‘yicha	696032770	870420477	725120670	884149825	1034098809
7.	Mahsulotlarni sotishdan sof tushum	510529428	624612508	930843808	1393255047	1811397243
8.	Debitorlar	361930920	373299203	87147033	112817202	159825614
9.	Kreditorlik qarzlari	476436150	528976714	81630339	182406897	157616611
10.	Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi	56428187	123859084	266713741	389286947	580052789
11.	Sof foyda	11 817 700	57 403 040	12 3264 197	140 520 976	253 643 314
12.	Uzoq muddatli aktivlar	190 341 918	316 623 956	360 363 748	375 947 103	431 167 915
13.	O‘z kapitali	24996180	24996180	24996180	24996180	24996180
14.	Uzoq muddatli majburiyatlar	1 650 065	1 776 980	81 312 062	39 482 517	39 482 517
15.	Jami majburiyatlar	696 032 770	870 420 477	676 403 103	884 149 825	1034098809

Olib borilgan tahlillar sifatini oshirish maqsadida korxonada moliyaviy barqarorligining nisbiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni talab etadi. Ma‘lumki, tadqiqot metodologiyasida moliyaviy barqarorlikning nisbiy ko‘rsatkichlarini 12 ta koeffitsiyentlar bilan chegaralanish taklif etilgan. Ushbu koeffitsiyentlar asosida “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilamiz.

<sup>60</sup> “Maxam-Chirchiq” AJning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

**Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlili<sup>61</sup>**

T/R	Koeffitsiyentlar nomi	Yillar				
		2017	2018	2019	2020	2021
1.	Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti	0,02	0,05	0,12	0,11	0,06
2.	To‘lov qobiliyati (joriy likvidlilik) koeffitsiyenti	1,02	0,92	1,8	1,4	1,6
3.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	0,3	0,3	0,6	0,5	0,6
4.	O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti	0,4	0,4	2,3	1,4	1,8
5.	O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti	2,5	2,1	0,8	1,1	0,9
6.	Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	1,4	1,4	10,7	12,3	11,3
7.	Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	1,1	1,2	11,4	7,6	11,5
8.	Balans foyda me‘yori koeffitsiyenti	0,1	0,2	0,3	0,3	0,3
9.	Sof foyda me‘yori koeffitsiyenti	0,02	0,09	0,13	0,13	0,14
10.	Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti	1,9	3,1	3,6	3,7	4,3
11.	Kapitallashuv koeffitsiyenti	2,4	2,6	4,1	4,9	6,6
12.	Qisqa muddatli qarz nisbati koeffitsiyenti	0,7	0,6	0,2	0,4	0,4

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatining mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti me’yoriy qiymatdan sezilarli darajada past bo‘lmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, korxonalarda qisqa muddatli majburiyatlar hajmi pul mablag‘larga nisbatan ancha yuqori. Ya’ni, birgina 2019-yilda korxonalarda qisqa muddatli majburiyatlarning atigi 0,12 foiz pul mablag‘lari hisobiga qaytarilishi mumkin. Bu esa, korxonada moliyaviy menejment samarali tashkil etilmaganligini belgilasa, ikkinchidan ta‘minotchilar (ish va xizmatlar) tomonidan e’tirozlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Hozirgi shiddatli islohotlar sharoitida kimyo sanoati korxonalari uchun ham korxonada faoliyatidagi mavjud risklar va ularni samarali boshqarish moliyaviy

<sup>61</sup> Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.



barqarorlikning muhim sharti hisoblanmish aylanma mablag'lar aylanuvchanligi uzluksizligini ta'minlash uchun tarmoqqa xos bo'lgan va "Maxam-Chirchiq" AJdagi real xo'jalik-moliyaviy faoliyatdan kelib chiquvchi rezervlardan to'liq foydalanish lozimligini ko'rsatadi. Shunday samarali tadbirlardan biri sifatida – korxonada umidsiz qarzlarni bo'yicha zaxira yaratish maydonga chiqadi.

Endi "Maxam-Chirchiq" AJning umidsiz qarzlarni bo'yicha rezervni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Buxgalteriya hisobi hujjatlariga ko'ra korxonaning 01.03.2021 yil holatiga debitorlik qarzlari miqdori bo'yicha quyidagi ma'lumotlar aniqlangan:

– debitorlik qarzlari miqdori 11142 mln.so'm – yuzaga kelgan muddati 12 oydan yuqori;

– debitorlik qarzlari miqdori 15673 mln.so'm – yuzaga kelgan muddati 12 oydan kam.

Buxgalteriya hisobida barcha qarzlarni dargumon qarzlarni sifatida tan olingan. 2021 yil 1-choragi bo'yicha mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum 554 396 mln.so'mni tashkil etgan.

Debitorlik qarzni yuzaga kelgan muddatni hisobga olgan holda rezervga ajratmaning hisoblangan summa (RAHS)sini aniqlasak, u quyidagini tashkil etgan:  $11142 \text{ mln.so'm} \times 100\% + 15673 \text{ mln.so'm} \times 50\% = 18978,5 \text{ mln so'm}$ .

Debitorlik qarzni yuzaga kelgan muddatni hisobga olgan holda rezervga ajratmaning eng yuqori summasi (RAYUS)ni aniqlasak, u quyidagini tashkil etgan:  $554\,396 \text{ mln.so'm} \times 10\% = 55\,439,6 \text{ mln.so'm}$

Shunday qilib, soliq hisobida rezervning summasi 1.04.2021-yilga 55 439,6 mln.so'mni tashkil etadi.

Umidsiz qarzlarni bo'yicha rezervning tashkil qilinishi korxonaga 2021-yilda foyda solig'idan 6590 mln.so'mni tejaj imkonini berar edi. Rezervning tashkil etilishi umidsiz qarzlardan voz kechishning salbiy oqibatlarini yumshatishga imkon bersada, ularni bartaraf eta olmaydi. Shu boisdan "Maxam-Chirchiq" AJda debitor qarzlarni boshqarish asosini qarzlarni yuzaga kelishining oldini olish va ularni undirishni tashkil etish tadbirlari tashkil etmog'i lozim.

Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday korxonada moliyaviy barqarorligini yaxshilash uchun qisqa muddatli va uzoq muddatli qo'yilmalarni qat'iy nazorat qilish va samarali boshqarish, debitorlik va kreditorlik qarzlarning sifati va o'zaro nisbatini doimo kuzatib borish talab etiladi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimida daromad solig'ining omilli tahlili tashkilotning moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va rejalashtirish uchun muhim vositadir.

Omilli tahlili yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini beradi. Bu omillar har xil bo'lishi mumkin, masalan, korxonada daromadlari va xarajatlari tarkibi, uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar darajasi, soliq stavkalari va boshqalar. Omilli tahlilini o'tkazish orqali ushbu omillardan qaysi biri daromad solig'i darajasiga ko'proq ta'sir qilishini aniqlash va uni optimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Misol uchun, agar korxonada daromadlari tarkibi yuqori rentabellikga ega bo'lgan tovarlarni sotishdan olingan katta miqdordagi daromadlarni o'z ichiga olsa, u holda biznesning ushbu yo'nalishini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etilishi mumkin.

Shuningdek, omil tahlili korporativ daromad solig'i darajasidagi kelajakdagi o'zgarishlarni bashorat qilishga yordam beradi. Misol uchun, agar tahlil kelgusi yilda soliq stavkalari oshishini ko'rsatsa, korxonada moliyaviy natijalarga ta'sirini minimallashtirish uchun oldindan choralar ko'rishi mumkin. Shunday qilib, daromad solig'ining omilli tahlili korxonaning moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimida muhim rol o'ynaydi, bu ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va uni optimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Moliyaviy qo'yilmalar, ma'lum darajada korxonada kreditorlik qarzlarni qoplash manbai hisoblanadi. Agar korxonada sotib oluvchi va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblardagi mablag'lar harakati muzlatib qo'yilsa, u holda korxonada katta hajmdagi pul mablag'lari taqchilligi kuzatilishi mumkin va bu holat byudjetga to'lanadigan soliqlar va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, ish xaqi va ijtimoiy to'lovlar bo'yicha kreditorlik qarzi yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Bu esa, oxir-oqibat jarimalar, ustama to'lovlar va boshqa moliyaviy zararlarga undaydi.

Shartnoma majburiyatlarining buzilishi va mol yetkazib beruvchilarga mahsuloti uchun vaqtida to'lovni vaqtida amalga oshirmaslik esa korxonaning ishchan mavqei va obro'sining tushib ketishiga va natijada uning to'lov qobiliyati va likvidligi yo'qotilishiga olib keladi<sup>62</sup>.

Shuning uchun har bir korxonada o'z moliyaviy holatini yaxshilashi uchun bo'sh moliyaviy mablag'lar mavjudligini, debitorlik va kreditorlik qarzlari o'zaro nisbatini doimiy kuzatishi, korxonada qarzlarning miqdorini kamaytirish yo'llari va vositalarini qidirib topishi lozim.

Umuman, "Maxam-Chirchiq" AJ ham o'z faoliyatida qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni, kreditorlik va debitorlik qarzlari o'zaro nisbatini samarali boshqarishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bu narsa, eng avvalo, hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanuvchanligini nazorat qilishni talab etadi. Korxonaning hisob-kitoblardagi mablag'lari aylanuvchanligining jadallashuvi dinamikasi – muhim ijobiy rivojlanish qonuniyati sifatida baholanadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari miqdoridan kelib chiqib hisob-kitob hujjatlari miqdori, debitorlar va kreditorlar soni, ularning tahlilini yoppasiga va tanlanma usullarda amalga oshirish mumkin. Nazoratning umumiy sxemasi, odatda, o'z ichiga bir necha bosqichlarni oladi.

1-bosqich. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning kritik darajalari beriladi; mazkur kritik darajadan oshgan barcha qarzlarning bo'yicha hisob-kitob hujjatlari majburiy tarzda tekshirib chiqiladi.

2-bosqich. Qolgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha nazorat tanlovi amalga oshiriladi. Buning uchun turli usullar qo'llaniladi.

3-bosqich. Tanlab olingan hujjatlar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlari real summalari tekshirib chiqiladi. Ko'pincha kontragentlar va vakillarga hisob-

---

<sup>62</sup> "Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: учебное пособие" / А.И. Алексеева, Ю.В. Василев, А.В. Малеева, Л.И. Ушвиский. – М.: "КНОРУС", 2017. – 672 с.

kitob hujjatidagi yoki hisobga olinayotgan summaning realligini tasdiqlashni so‘rab xat yuboriladi.

Biroq, mazkur jarayonda asosiy e‘tibor dargumon qarzlari bo‘yicha rezerv tashkil etilganligi va debitorlik qarzlari to‘lamaslik oqibatida haqiqatdagi yo‘qotishlar tahliliga, debitorlik qarzlari undirish muddatlarini kamaytirish usullarini o‘rganishga qaratilmog‘i lozim.

Debitorlik qarzlari tahlilini debitorlar hisob-raqamlarining “keksarishi” reestrini tuzishdan boshlamoq lozim. Bunda mazkur reestrni tuzish uchun dastlabki ma‘lumot bazasi sifatida aniq kontragentlar qarzlari to‘g‘risidagi buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari chiqadi va bunda nafaqat qarz summasi, balki uning yuzaga kelish muddatlari ham zarurdir. Muddati o‘tib ketgan qarzlari haqidagi ma‘lumotlarni olish uchun kontragentlar bilan tuzilgan shartnomalar tahlilini amalga oshirish lozim.<sup>63</sup>

### **2.3. Korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish omillari va imkoniyatlarining regression tahlili**

“O‘z kimyo sanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ korxonalarini faoliyatining rivojlanish qonuniyatlarini xususiyatlovchi dinamikada sof foyda qiymatining o‘rtacha yillik qo‘shimcha o‘sishini aniqlash hamda uning nazariy darajasini o‘rganish uchun sof foyda qiymatining dinamik qatorlarini tekislash amalga oshiriladi. Amaliyotda trendni statistik o‘rganishning eng ko‘p tarqalgan metodlari: interval (davr) oralig‘ini kengaytirish; sirg‘anchiq o‘rtacha; analitik tekislashdir.

Qayd qilinganlardan foydalangan holda “O‘z kimyo sanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymatining dinamik qatorini tekislashni amalga oshiramiz (2.9.-jadval). Bu yerda 3 a‘zoli sirg‘anchiq o‘rtachani qo‘llaymiz.

---

<sup>63</sup> “Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: учебное пособие” / А.И. Алексеева, Ю.В. Василев, А.В. Малеева, Л.И. Ушвицкий. – М.: “КНОРУС”, 2017г. – 672 с.

**“O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymatining dinamikasi<sup>64</sup> (mlrd.so‘m)**

Yillar	Sof foyda qiymati, Y	t-davr	t <sup>2</sup>	t <sup>4</sup>	y <sub>i</sub> • t <sub>i</sub>	y <sub>i</sub> • t <sub>i</sub> <sup>2</sup>	y <sub>i</sub> • t <sub>i</sub> <sup>4</sup>	Uch yillik o‘rtacha
A	1	2	3	4	5	6	7	8
2018	56,7	5	25	625	183,5	917,5	22937,5	56,4
2019	59,7	6	36	1296	238,2	1429,2	51451,2	64,3
2020	66,5	7	49	2401	185,5	1298,5	63626,5	67,3
2021	85,7	8	64	4096	605,6	4844,8	310067,2	80,7
2022	92,1	9	81	6561	719,1	6471,9	524223,9	
<b>Jami</b>	<b>360,7</b>	<b>35</b>	<b>255</b>	<b>15333</b>	<b>2064,1</b>	<b>15285,7</b>	<b>977618,1</b>	

Dinamik qatorlardagi umumiy tendensiyani sirg‘anchiq o‘rtacha orqali ham aniqlash mumkin. Sirg‘anchiq o‘rtacha darajalarni aniqlash metodining mohiyati shundaki, unda dinamik qatorlarda keltirilgan haqiqiy darajalar sirg‘anchiq o‘rtacha miqdor bilan almashtiriladi.

Dinamik qatorlarni silliqlash metodi yordamida hodisa va jarayonlardagi umumiy tendensiyani aniqlash uchun, avvalo, empirik (boshlang‘ich) ma‘lumotlar bo‘yicha harakatlanuvchi (sirg‘anchiq) o‘rtachalarni hisoblash zarur.

Buning uchun uchta had qo‘shilib uchga bo‘linadi, ikkinchi o‘rtachani aniqlashda birinchi o‘rtachaning birinchi hadi tushirib qoldiriladi va uning o‘rniga navbatdagi to‘rtinchi had qo‘shilib olingan natija yana uchga bo‘linadi va h.k. 2.3.1.-jadvalning 8 ustunida uch yillik sirg‘anchiq o‘rtachalarining miqdorlari keltirib, ular quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$\bar{y}_i = \frac{y_{i-1} + y_i + y_{i+1}}{3} \left( \text{мисол, } \bar{y}_{2011} = \frac{8,6 + 9,8 + 13,6}{3} = 10,7 \right)$$

Dinamik qatorlarda mavjud tendensiyani aniqlashning eng muhim usullaridan biri – analitik tekislashdir. Bu usulning asosiy mazmuni bo‘lib, rivojlanishning asosiy tendensiyasi vaqt ( ) funksiyasi sifatida hisoblanishida namoyon bo‘ladi.

<sup>64</sup> “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Nazariy hadlarni ( ) hisoblash teng (mos) matematik funksiyalar asosida amalga oshiriladi. Mos funksiyani tanlash eng kichik kvadratlar metodi orqali amalga oshiriladi. Bu metodning mohiyati shundaki, haqiqiy darajadan ( $Y$ ) tekislangan ( ) qator darajasi eng kam bo'lsa ham  $(\bar{Y}_t - Y) =$  tafovutda bo'lishi kerak. Bu tenglamaning mohiyati shundaki, u trendni o'rganishda nazariy va haqiqiy hadlarning mosligini baholashda o'lchov mezoni sifatida qo'llaniladi.

Analitik tekislashni amalga oshirishda eng qiyin va muhim ishlardan biri trend darajalarini hisoblovchi matematik funksiyaning turini tanlashdir. O'rganilayotgan hodisa va jarayonlardagi qonuniyatlar to'g'risida qilinadigan xulosalar aynan funksiyani qanday tanlanganligiga bog'liq.

Analitik tekislash metodini asosli qo'llashning shartlaridan biri - hodisa va jarayonlarning rivojlanish tiplarini, ularning asosiy ajratib turuvchi belgilarini bilishdir.

Buning uchun o'zgarishning xususiyatiga bog'liq holda to'g'ri chiziqli ( $\bar{Y}_t = a_0 +$  va ikkinchi tartibli parabola ( $\bar{Y}_t = a_0 + a_1 t +$  tenglamalaridan foydalaniladi, bu yerda  $a_0, a_1, a_2$  - parametrlar;  $t$  - yillarning tartib raqami.

“O'zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo'qon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymatining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida analitik tekislash natijalari, ya'ni yuqorida keltirilgan 2.3.1.-jadvaldan foydalanib, dastlab

$\bar{Y}_t = a_0$  to'g'ri chiziqli tenglamaning parametrlarini hisoblaymiz:

$$a_0 = \frac{\sum t^2 \sum y - \sum t \sum yt}{n \sum t^2 - \sum t \sum t} = \frac{3,06 * 285 - 45 * 2,06}{9 * 285 - 45 * 45} = 1,44$$

$$a_1 = \frac{n \sum yt - \sum t \sum y}{n \sum t^2 - \sum t \sum t} = \frac{9 * 2,06 - 45 * 2,06}{9 * 285 - 45 * 45} = -0,14$$

U holda to'g'ri chiziqli tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\bar{Y}_t = 1,44 - 0,14 * t$$

$a_1$  – parametr regressiya koeffitsiyenti bo‘lib, rivojlanish yo‘nalishini aniqlaydi. Agar  $a_1 > 0$  bo‘lsa, dinamik qatorning hadlari bir tekisda o‘sib boradi, agar  $a_1 < 0$  bo‘lsa, ular kamayib boradi.

“O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymatining tekislangan dinamik qatori samaradorligining yillik 0,14 birlikka kamayishini o‘rnatish imkoniyatini beradi.

Ko‘p hollarda chiziqli tenglamadan ko‘ra, boshqa ko‘rinishdagi tenglamalar jumladan, kvadrat tenglama yoki boshqa tenglama bo‘yicha aniqlangan hisob-kitoblar aniqroq bo‘lish ehtimoli mavjudligidan sof foyda qiymatining tekislangan dinamika qatorini kvadrat tenglama orqali ifodalanishini ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

$$a_0 = \frac{\sum t^4 \sum y - \sum t^2 y \sum t^2}{n \sum t^4 - \sum t^2 \sum t^2} = \frac{15333 * 3,06 - 15,3 * 285}{9 * 15333 - 285 * 285} = 0,75$$

$$a_0 = \frac{\sum ty}{n \sum t^2} = \frac{2,06}{9 * 285} = 0,0008$$

$$a_2 = \frac{n \sum t^2 y - \sum y \sum t^2}{n \sum t^4 - \sum t^2 \sum t^2} = \frac{9 * 15,3 - 3,06 * 285}{9 * 15333 - 285 * 285} = 0,013$$

Shunday qilib, parabola tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\bar{Y}_t = 0,75 + 0,0008 * t - 0,013 * t^2.$$

Sof foyda qiymatining o‘sish dinamikasiga omillar ta‘sirini aniqlash uchun umumiy, tasodifiy va omilli dispersiyalarni hisoblaymiz: u

$$\sigma_{\text{ум}}^2 = \frac{\sum (\bar{y}_i - y_i)^2}{n} = \frac{3}{9} = 0,33; \quad \sigma_{\text{ум}} = \sqrt{0,33} = 0,57$$

$$\sigma_{\text{тас}}^2 = \frac{\sum (y_i - \bar{y})^2}{n} = \frac{2,8}{9} = 0,31; \quad \sigma_{\text{тас}} = \sqrt{0,31} = 0,56$$

$$\sigma_{\text{омил}}^2 = \sigma_{\text{ум}}^2 - \sigma_{\text{тас}}^2 = 0,33 - 0,31 = 0,02; \quad \sigma_{\text{омил}} = \sqrt{0,02} = 0,14$$

U holda determinatsiya koeffitsiyenti teng:

$$K_{\text{детер.}} = \frac{\sigma_{\text{омил}}^2}{\sigma_{\text{ум}}^2} = \frac{0,02}{0,33} = 0,06$$

Tasodifiy dispersiya koeffitsiyenti teng:

$$\frac{\sigma_{\text{Tac}}^2}{\sigma_{\text{yM}}^2} = \frac{0,31}{0,33} = 0,94$$

Olingan natijalar shunday dalolat beradiki, o'rganilayotgan davrda sof foyda qiymatining o'sish dinamikasiga turli tasodifiy omillarning ta'siri 0,06 foizni (1-0,94) tashkil etgan. Omil belgilar (axborot taraqqiyoti ta'siri, jalb qilingan investitsiyalar qiymati, kreditorlik qarzlari, umumiy daromad va umumiy xarajatlar)ga samaradorlik tebranishining 94,0 foizi bog'liq bo'lgan.

Analitik tenglamalarning parametrlarini hisoblash sof foyda qiymatining o'sish natijalari ko'rsatkichlarini prognoz qilish imkoniyatini beradi.

## 2.10-jadval

### “O'zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ sof foydasi qiymatining aniqlangan tenglamalar bo‘yicha o‘shish prognozi<sup>65</sup>(mlrd. so‘m)

Yillar	To‘g‘ri chiziqli tenglama bo‘yicha	Kvadrat tenglama bo‘yicha
2021 (haqiqatda)	0,35	0,24
2022 (haqiqatda )	0,38	0,27
2023 (prognoz t=10)	0,41	0,29
2024(prognoz t=11)	0,44	0,32
2025 (prognoz t=12)	0,47	0,34
2026 (prognoz t=13)	0,35	0,24

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, ikkinchi tartibli parabola bo'yicha aniqlangan prognozi to'g'ri chiziq bo'yicha sof foyda qiymatining o'zgarish prognoziga qaraganda realliroqdir. Ammo unutmazlik kerakki, har qanday prognoz ehtimollik xususiyatiga ega va odatda o'zgarmas sotsial-iqtisodiy sharoitlarda amalga oshiriladi.

Endi “O'zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymatiga bir qator omillarning, jumladan: jalb etilgan investitsiyalar ko'rsatkichi (JEI), kreditorlik qarzlari, umumiy daromad va umumiy xarajat

<sup>65</sup> «O'zkimyosanoat» AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan



ko'rsatkichlarining ta'sirida o'zgarishini ko'rib chiqamiz. Ushbu ko'p omilli ta'sirni kompyuterning EXCEL dasturi paketlaridan foydalanib, aniqlash mumkin. Buning uchun avvalambor, ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish talab etiladi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, sof foyda, kreditorlik qarzlarga (-0,29484) va umumiy xarajatlarga (-0,11132) teskari bog'langan bo'lib, kreditorlik qarzlarni kamaytirish hisobiga sof foyda qiymatini oshirish mumkin.

**2.11-jadval**

**“O'z kimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymatiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsion bog‘lanishi<sup>66</sup>**

	<i>Sof foyda, Y</i>	<i>JEI, X1</i>	<i>Kreditorlik qarzlari, X2</i>	<i>Umumiy daromadlar, X3</i>	<i>Umumiy xarajatlar X4</i>
Sof foyda, Y	1				
JEI, X1	0,357237	1			
Kreditorlik qarzlari, X2	-0,29484	-0,58449	1		
Umumiy daromadlar, X3	0,994634	0,448958	-0,36009	1	
Umumiy xarajatlar X4	-0,11132	-0,5065	0,805573	-0,1812	1

Endi ushbu aniqlangan regressiya tenglamasini ishonchliligi va addekvatligini bir qator mezonlar asosida tekshirib chiqish lozim.

1) Aniqlangan natijaga ko'ra,  $R^2=0,9998567$  “O'z kimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ sof foydasining debitorlik, kreditorlik qarzdorligi va umumiy daromadlilik variatsiyasiga bog'liqligi 99,9 foizni tashkil etdi. Ammo t-statistika mezoni bo'yicha samaradorlikning yig'indi ko'rsatkichi  $-18,5845739$  va kreditorlik qarzdorlik  $-1,2629575$  hisoblangan qiymati ozod ko'rsatkichning soni  $df = 9$  va  $\alpha = 0,05$  bo'lganda  $t_{\text{жад}} = 2,1825$ ga teng bo'lib, bu o'z navbatida  $t_{\text{жақ}} < t_{\text{жад}}$  bo'lganligidan ushbu ikki omilni aniqlanuvchi regressiya tenglamasidan chiqarib yuborib, qolgan ikki omil bilan birgalikda regressiya tenglamasini tuzib olamiz. Unga ko'ra,

$$Y = 0,98 * X_1 + 0,13 * X_2 - 153,9$$

<sup>66</sup> «O'z kimyosanoat» AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

ko‘rinishdagi  $R^2=0,992276$  bo‘lganda sof foyda bilan umumiy daromad va xarajatlar o‘rtasida regressiya tenglamasi hosil bo‘ladi.

Bu yerda: Y -sof foyda,

$X_3$ - umumiy daromadlar,

$X_2$ - umumiy xarajatlar.

Aniqlangan regressiya tenglamasini qolgan mezonlar bilan tekshirishda davom etamiz. F-Fisher mezoni bo‘yicha  $\alpha=0,05$  holat uchun Fisher taqsimoti ikki ozod ko‘rsatkich:  $k_1 = 9$  –va  $k_2 = 9 - 2$  –lardan iborat bo‘lib,  $F_{hisob}=152,95 \geq F_{jad}=4,15$  bo‘lganligidan aniqlangan regressiya tenglamasi o‘rinli bo‘ladi.

Styudent mezoniga asosan regressiya tenglamasini ishonchliligini tekshirish uchun har bir parametrga mos keluvchi t mezonlari hisoblanishi talab etiladi unga ko‘ra,  $t_{x_1} =$ ,  $t_{x_2} =$ . Styudent taqsimotining jadvaliga ko‘ra, ozod ko‘rsatkichning soni  $df = 8$  va  $\alpha =$  bo‘lganda  $t_{жад} = 2$  ga teng bo‘lib, bu o‘z navbatida  $t_{хак}$  tenglikni qanoatlantirganligidan quyida aniqlangan regressiya tenglamasining parametrlari 0,95 ehtimol bilan ishonchli deb topildi.

Aniqlangan regressiya tenglamasiga ko‘ra, hozirgi sharoitda, “Uzkimyosanoat” AJda yuz birlik umumiy daromadning oshirish evaziga sof foydasini 98 birlikka oshirish va harajatni yuz birlikka oshirish hisobidan foydani 13 birlik o‘shirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

“O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ faoliyatini samaradorlikning yig‘indi ko‘rsatkichi, kreditorlik qarzlari, umumiy daromad va xarajatlar kabi ko‘p omilli ekonometrik tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatining jalb etilgan investitsiyalar ko‘rsatkichini oshirish mumkin emas va uning har bir - birlik hisobidan jamiyat 0,07 birlik zarar ko‘radi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyati kreditorlik qarzdorligini ham kamaytirish lozim bo‘lib, har yuz foizga kamaytirish hisobidan sof foydaning 1,1 foiz oshirishi aniqlandi.

Endi “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ faoliyatini tanlangan omillar bo‘yicha kelgusi prognozini aniqlaymiz. Buning

uchun avvalambor, aksiyadorlik jamiyati sof foydasi bilan tanlangan omillar o‘rtasida regressiya tenglamasi tuzib olib, omillarning vaqtga bog‘liq o‘zgarishi orqali natijaviy qiymatni aniqlash lozim.

$$\text{Jalb etilgan investitsiyalar - } X_1 = 408,2 + 327,$$

$$\text{Kreditorlik qarzlari - } X_2 = 383,2 + 6$$

$$\text{Umumiy daromadlar- } X_3 = 85,3 + 1.$$

$$\text{Umumiy xarajatlar- } X_4 = 101 + 1$$

Ushbu tanlangan omillarning vaqtga bog‘liq regressiya tenglamalaridan foydalanib, quyidagi sof foyda o‘zgarishini ko‘p omilli regressiya tenglamasiga qo‘yib, prognoz natijasini aniqlash mumkin.

$$Y = -0,0041 * X_1 - 0,0011 * X_2 + 2,612 * X_3 + 0,072 * X_4$$

Aniqlangan regressiya modelidan foydalanib “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ faoliyatining istiqboldagi holatini quyidagi 2.7-jadvaldan ko‘rish mumkin.

## 2.12-jadval

### “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ faoliyati prognozi<sup>67</sup> (mlrd. so‘m)

Yillar	Sof foyda, Y	Jalb etilajak investitsiyalar, X1	Kreditorlik qarzlari, X2	Umumiy daromadlar, X3	Umumiy xarajatlar X4
2021 (xakikatda)	85,7	3680,1	1020,2	2087,3	1994,6
2022 (xaqiqatda)	92,1	4007,3	1083,9	2241,5	2089,3
2023 (prognoz 12)	98,4	4334,5	1147,6	2355,7	2236,6
2024 (prognoz 13)	107,8	4661,7	1211,3	2469,9	2297,9
2025 (prognoz 14)	113,1	4988,9	1275,0	2684,1	2459,2
2026 (prognoz 15)	121,4	5316,1	1338,7	2798,3	2499,5

Jadval natijalariga ko‘ra, “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ faoliyatida 2026-yilga borib, jalb etilajak investitsiyalar 5316,1 mlrd. so‘m, kreditorlik qarzdorligi 1338,7 mlrd. so‘m, umumiy daromad 2798,3 mlrd. so‘m va umumiy xarajatlar 2499,5 mlrd. so‘mga yetgan holatda sof

<sup>67</sup> «O‘zkimyosanoat» AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

foйда 2021-yilga nisbatan 41,7 foizga oshib, 121,4 mlrd. soʻmga yetishi kutilmoqda.

Tadqiqotimizning mazkur paragrafi yuzasidan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Rivojlanish qonuniyatlarini xususiyatlovchi dinamikada samaradorlikning oʻrtacha yillik qoʻshimcha oʻsishini aniqlash hamda uning nazariy darajasini oʻrganish uchun “Oʻzkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qoʻqon superfosfat zavodi” AJ korxonalarini sof foydasi oʻzgarishlarining dinamik qatorlarini tekislash amalga oshiriladi. Amaliyotda trendni statistik oʻrganishning eng koʻp tarqalgan metodlari: interval (davr) oraligʻini kengaytirish; sirgʻanchiqli oʻrtacha; analitik tekislashdir.

Analitik tekislashda oʻzgarishning xususiyatiga bogʻliq holda toʻgʻri chiziqli

$(\bar{y}_t = a_0$  - va ikkinchi tartibli parabola ( $\bar{y}_t = a_0 + a_1t +$  tenglamalaridan foydalaniladi.

2. “Uzkimyosanoat” AJ aksiyadorlik jamiyati sof foyda qiymatining tekislangan dinamik qatori samaradorlikning yillik 0,03 birlikka oshishini oʻrnatish imkoniyatini beradi. Olingan natijalar shunday dalolat beradiki, oʻrganilayotgan davrda sof foyda qiymatining oʻsish dinamikasiga turli tasodifiy omillarning taʼsiri 0,06 foizni (1-0,94) tashkil etgan. Omil belgilar (axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi innovatsion taraqqiyot taʼsiri, jalb etilgan investitsiyalar qiymati, kreditorlik qarzlari, umumiy daromad va umumiy xarajatlar)ga samaradorlik tebranishining 94,0 foizi bogʻliq boʻlgan. Tadqiqot boʻyicha ikkinchi tartibli parabola boʻyicha aniqlangan prognoz toʻgʻri chiziq boʻyicha sof foyda qiymatining oʻzgarish prognoziga qaraganda realroq boʻlib, 2024-yilda “Oʻzkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qoʻqon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymati 121,4 mlrd. soʻmga teng boʻlishi kutilmoqda. “Oʻzkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qoʻqon superfosfat zavodi” AJ sof foyda qiymatini umumiy daromad va xarajatlar bilan bogʻliq regressiya tenglamasi orqali hozirgi sharoitda, “Oʻzkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qoʻqon superfosfat zavodi” AJ yuz birlik umumiy daromadning oshirish evaziga sof foydasini 98 birlikka oshirish va harajatni yuz birlikka oshirish hisobidan foydani 13 birlik oʻsish

imkoniyati mavjudligi aniqlandi. “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ faoliyatini jalb etilgan investitsiyalar qiymati, kreditorlik qarzlari, umumiy daromad va xarajatlar kabi ko‘p omilli regression tahlili natijalaridan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatining “har qanday shartlarda jalb etilajak investitsiyalar qiymati”ni oshirish mumkin emas va uning har bir- birlik hisobidan jamiyat 0,07 birlik zarar ko‘radi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyati kreditorlik qarzlarni ham kamaytirishi lozim bo‘lib, har yuz foizga kamaytirish hisobidan sof foydaning 1,1 foiz oshishi aniqlandi.

Mazkur ta’kidlangan jihatlar “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi “Qo‘qon superfosfat zavodi” AJ korxonalarini rivojlantirish istiqbollarida albatta inobatga olinishi zarur. Shu boisdan tadqiqotimiz yakunlovchi bobida ularni alohida hisobga olishga harakat qildik.

### **Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar**

-moliyaviy barqarorlik korxonada taraqqiyoti umumiy barqarorligining tarkibiy qismi bo‘lib, u korxonaning ma’lum davr mobaynida o‘z faoliyatini tashkil etishga imkon beruvchi mablag‘larning mavjudligi, moliyaviy oqimlarning balanslilikidir;

-moliyaviy barqarorlik – aktivlar tarkibida moliyalashtirish manbalari tarkibining muvofiqligi tavsiflaridan biri hisoblanadi. Korxonada aylanma aktivlari va qisqa muddatli majburiyatlarini baholovchi to‘lovga layoqatlilik ko‘rsatkichidan farqli tarzda moliyaviy barqarorlik moliyalashtirishning turli manbalari o‘zaro nisbati va ularning korxonada aktivlari tarkibiga muvofiqligi orqali aniqlanadi;

-korxonada ishlab chiqarish tizimi faoliyatining yuksak darajadagi natijadorligiga erishish uchun menejment tizimi moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikka asoslangan oqilona, to‘g‘ri strategiyaga asoslanmog‘i lozim. Iqtisodiy bo‘g‘inni strategik boshqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida uning joriy faoliyatini tahlil etish hamda kelgusi rivojlanish istiqbollarini baholash maydonga chiqadi. Xo‘jalik amaliyoti moliyaviy menejment nazariyasining taraqqiyotini va eng avvalo, tahlil

sifatini oshirish yoʻnalishlarida korxonada moliyaviy barqarorligini baholash metodologiyasini takomillashtirishni talab etmoqda;

-korxonada moliyaviy barqarorligi - bu xoʻjalik subyektining oʻz faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi nobarqaror muhit taʼsiriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham oʻzining toʻlovga layoqatliligini saqlay olishga qaratilgan qobiliyatidir.

### **III BOB. KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH VA BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI**

#### **3.1. Korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash va samarali boshqarishga oid zamonaviy qarashlar ijobiy tavsiyalaridan foydalanish yo‘llari**

Korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash va boshqarish sifatini oshirish masalasi hayotiy zaruriyat ekan uning asosiy yo‘nalish va istiqbollari ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan dissertatsion tadqiqotimiz yakunlovchi bobida izlanish oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

-korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash va samarali boshqarishga oid zamonaviy qarashlar ijobiy tavsiyalaridan foydalanish yo‘llarini ilmiy asoslash;

-korxonalar moliyaviy barqarorligi darajasi va uning ko‘rsatkichlarini baholash uslubiyotini takomillashtirish yo‘nalishlarini ochib berish;

-korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar kompleksini ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida hamda Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta‘minlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, korporativ moliyaviy menejment samarali usullarini qo‘llash, korxonalar mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan korporativ nazorat o‘rnatish va uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berildi<sup>68</sup>. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi O‘zbekistonda korxonalar moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jahonda global beqarorliklar, risklar, kuchli raqobat va koronavirus pandemiyasi sharoitida rivojlanayotgan jahon iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi

---

<sup>68</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. PF-4947-son, 2017-yil 7-fevral; Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

subyektlar moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish va ular faoliyat sifatini moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida bir-biri bilan solishtirma reyting va renking baholash masalalarining samarali (aniq, tezkor, ishonchli) yechimiga erishish zamonaviy moliyaviy tahlilning fundamental ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Hozirda "reyting va renking baholash xizmatining jahon bozorida Standart&Poor's, Moody's, Fitch Ratings, Forbes, Fortune, Business Week kabi reyting agentliklar va boshqa bir qator moliya institutlari faoliyat ko'rsatmoqda"<sup>69</sup>. Lekin bu agentliklar reyting baho qo'yishi uchun uzoq muddat vaqt talab qilinishi va aniq bir umumiy metodologiya mavjud bo'lmaganligi uchun ba'zan bir subyektning o'ziga bu agentliklar orqali har xil reyting baho qo'yilganligini kuzatamiz. Demak, iqtisodiyotning real sektorida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar moliyaviy holatining tahlilini takomillashtirib, ularga umumiy metodologiya asosida samarali kompleks baho berish zarurati tug'ilmoqda.

Jahon amaliyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish va reyting baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini kompleks ifodalovchi ular buxgalteriya balansi summar ko'rsatkichlariga asoslangan bir-biriga to'g'ri va teskari nisbatlardagi koeffitsiyentlari vositasida sifat darajalarini reyting va renking metodologiyasi asosida solishtirma baholash masalalari aniq iqtisodiy-matematik metodlar va mezonlar asosida samarali yechimiga erishilmagan<sup>70</sup>. Ushbu kontekstda, bir tomondan, dunyodagi iqtisodchi-olimlar olib borayotgan ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi, ikkinchi tomondan, bunday tadqiqotlarga asoslanuvchi moliyaviy tahlil va analitik xizmatlar hamda milliy va xalqaro reyting baholash tizimlari faoliyatlari raqamlashtirilishining kuchayishi, mazkur masalalar bilan bog'liq nazariy va metodologik bazis yetarlicha takomil emasligi sababli ular samarali yechimiga erishishning dolzarbligi va zaruratini jahon miqyosida yanada oshirmoqda degan xulosa korxonalar moliyaviy

---

<sup>69</sup><http://forexlabor.info/blog/mezhdunarodnye-rejtingovye-agentstva/>

<sup>70</sup>Dolgix Yu. A. Innovatsionnyy myetodicheskiy podxod k osyenkye finansovoy ustoychivosti predpriyatiya// Finansovyy biznes. – 2018. – №6. – S.33–40



barqarorligini baholash va samarali boshqarishga oid zamonaviy qarashlar ijobiy tavsiyalaridan foydalanish zarurligini belgilaydi<sup>71</sup>.

O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida real iqtisodiyot sektorida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga asoslangan moliyaviy tahlil sohasi takomillashtirilmoqda. Zero ushbu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar yetarli emasligi va respublikamizda qabul qilingan metodologik me‘yoriy bazisning eskirganligi e‘tirof etilmoqda. Shu bilan birga, «ko‘rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas»<sup>72</sup>. Bular esa mamlakatimizdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga aniq umumiy baho berish, moliyaviy reyting metodologiyasi asosida solishtirma baholashning zamonaviy nazariy bazis va samarali yondashuvni ishlab chiqib, uni amaliyotga joriy etishni talab etmoqda.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya balansi (XSBB) summar ko‘rsatkichlarini ( $a$  – uzoq muddatli aktivlar,  $b$  – joriy aktivlar,  $c$  – xususiy kapital,  $d$  – qarz majburiyatlari) o‘zaro bog‘liqligi, ular asosida moliyaviy tahlil va mavjud reyting metodologiyalari asosida solishtirma baholash bilan bog‘liq tushunchalar va mumtoz nazariy-metodologik bazis tahliliy tizimlashtirishgan. Buning negizida XSBB summar ko‘rsatkichlarining bir-biriga to‘g‘ri va teskari nisbatlardagi 12 ta koeffitsiyenti asosida ushbu natijalar kompleks tahlili, xo‘jalik yurituvchi subyektlar (XYUS) moliyaviy xolati reytingini baholash va moliyaviy o‘lchami bo‘yicha renkingini aniqlashning takomillashgan nazariy-metodologik bazisi va unga mos matematik yondashuvi shakllantirilgan.

---

<sup>71</sup>Dolgikh J. A. Development of methodology icalto olsassessment of financial stability of enterprise/Advancesin Social Science, Education and Humanities Research.–2019.–Vol.240.– P.146–150.

<sup>72</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son Qarori

XSBB ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqlikda bir-biriga to'g'ri va teskari nisbatlardagi koeffitsiyentlarni aniqlash jarayoni quyidagi sodda amallar yordamida ifodalangan to'rtta guruhga ajratilgan tengliklar ko'rinishida keltirildi:

1)  $b, c, d$  ko'rsatkichlarni  $a$  ko'rsatkichga nisbati, ya'ni:

$$a = b \cdot (a/b), a = c \cdot (a/c), a = d \cdot (a/d) \quad (1)$$

2)  $a, c, d$  ko'rsatkichlarni  $b$  ko'rsatkichga nisbati, ya'ni:

$$b = a \cdot (b/a), b = c \cdot (b/c), b = d \cdot (b/d) \quad (2)$$

3)  $a, b, d$  ko'rsatkichlarni  $c$  ko'rsatkichga nisbati, ya'ni:

$$c = a \cdot (c/a), c = b \cdot (c/b), c = d \cdot (c/d) \quad (3)$$

4)  $a, b, c$  ko'rsatkichlarni  $d$  ko'rsatkichga nisbati, ya'ni:

$$d = a \cdot (d/a), d = b \cdot (d/b), d = c \cdot (d/c) \quad (4)$$

Ushbu (1)-(4) tengliklar bo'yicha quyidagilarni aytish mumkin.  $a = b \cdot (a/b)$  tenglikda  $b$  ko'rsatkich bir birlikka oshsa, u holda  $a$  ko'rsatkich necha miqdor birlikka ortishini aniqlashimiz mumkin. Aytilganlarni quyidagi shaklda matematik ifodalash mumkin bo'ladi:  $(b+1) \cdot (a/b) = a + (a/b)$  yoki ushbu tenglikni iqtisodiy nuqtai nazardan quyidagicha talqin qilsa bo'ladi:  $b$  bir birlikdagi miqdorga ortsa,  $a$  ko'rsatkich  $(a/b)$  birlikdagi qiymat miqdoriga ortadi.


Moliyaviy tahlil nazariyasi va amaliyoti uchun yangi va zarur xisoblanuvchi hamda yuqoridagi (1)-(4) tengliklarga ko'ra, to'rtta guruhga kiritilgan 12 ta nisbiy koeffitsiyentning minimal va maksimal chegaraviy miqdorlari aniqlanib, ular uchun optimal bo'luvchi chegara va ushbu chegaralar ichida yotuvchi etalon miqdorlar hamda mazkur 12 ta koeffitsiyentning bir-biriga bog'liqligini ifodalovchi integrallashgan tenglik aniqlandi. Zero, chegaraviy miqdorlar va ular uchun optimal chegara yordamida aniqlanuvchi 12 ta koeffitsiyent uchun etalon bo'luvchi koeffitsiyentlarni XSBB summar ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlangan (ularga mazmunan mos keluvchi) nisbiy koeffitsiyentlariga qiyoslab uning moliyaviy holati reyting bahosini

$$|\exists - \exists| = \Delta$$

ko'rinishidagi umumlashgan mezon yordamida aniqlash mumkin.

Bunda E – etalon koeffitsiyentlar; B – buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlangan koeffitsiyentlar;  $\Delta$  – reyting baho hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan nazariy g‘oya, fikr va modellar hamda tizimli yondashuvni qo‘llovchi ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya (IIS)<sup>7</sup> qoidalari asosida 3.1.1-rasm ko‘rinishidagi tuzilmaviy-funksional model o‘rinli.



**3.1-rasm. XYUS investor(ega)lari, menejmenti, auditori va buxgalteriyasining o‘zaro bog‘liqlikdagi faoliyat sifatining boshqarilishi va buxgalteriya balansi tahlili amalga oshirilishi jarayonlarini ifodalovchi tuzilmaviy-funksional model<sup>8</sup>**

Bunda IMA – tahlilni amalga oshiruvchi kompaniya egasi (investori), moliyaviy menejer va auditor; TO – tashqi omil; IO – ichki omil.

Umuman olganda, 3.1-rasmdagi model XSBB kompleks tahlilini buxgalteriya, menejment, audit, investorlar bilan bog‘liqlikda ichki va tashqi omillar ta’sirida amalga oshirilishi jarayonini tizimli ifodalab o‘rganish imkonini beradi. Bunda 1-rasmdagi modelning ishlash prinsipini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: tashqi omillar (TO) va buxgalteriya omili (IO sifatida) ta’sirida

buxgalteriya balansi shakllanadi, ya'ni ma'lum davr uchun  $a, b, c, d$  asosida natija sifatida buxgalteriya balans hisoboti tuziladi. Mazkur natija tahlilni amalga oshiruvchi investor, moliyaviy menejer, auditor (IMA) va buxgalteriya uchun ichki omil sifatida ta'sir ko'rsatib ular tomonidan tashqi omillarning (TO) keyingi davrdagi ta'siriga reaksiya sifatida mos keluvchi navbatdagi ichki omillar generatsiya qilinib buxgalteriya balansini buxgalteriya tomonidan o'zgartirilishiga (korreksiya qilinishiga) olib keladi. Bunda IMA va buxgalteriya TO ta'siri ostida bir-biriga ichki ta'sirda bo'lib IMA regulyativ funksiyani bajaradi.

3.1-rasmdagi modelda IOlar va natijani o'zgarishi TOlarning negativ yoki pozitiv xarakterga egaligiga bog'liq. Bunda natija TOning pozitiv yoki negativligiga qarab, ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Agarda TO ta'siri negativ bo'lsa, u holda bunday salbiy ta'sirni IMA bartaraf qilishga intiladi (ya'ni ichki regulyativ funksiyani bajaradi). Agarda TO ta'siri pozitiv bo'lsa, bunday holat natijada (buxgalteriya balans hisobotida) ijobiy bo'ladi. Ushbu 3.1.1-rasmdagi modelda IMAning qaror qabul qilish funksiyasi kompaniya buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari ( $a, b, c, d$ ) barqaror va talab darajasida bo'lishiga bo'ysundirilgan bo'lib, ushbu modelning ishlash prinsipiga asoslangan holda kompaniya buxgalteriya balansini kompleks moliyaviy tahlil qilish va reyting baholash jarayonlarini matematik formallashtirish mumkinligini bildiradi.

Yuqorida berilgan nazariy qoidalarga tayanuvchi metodologik yondashuv quyida berilgan uslublar (metodikalar) majmuasini o'z ichiga oladi:

*birinchi metodika:* to'rtta guruhga kiritilgan (1-4 tengliklar) 12 ta koeffitsiyentning minimal va maksimal chegaraviy miqdorlari aniqlandi;

*ikkinchi metodika:* 6 ta to'g'ri va 6 ta teskari nisbatdagi koeffitsiyentlarining minimal va maksimal chegaraviy miqdorlari uchun optimal bo'luvchi chegara aniqlandi;

*uchinchi metodika:* 12 ta koeffitsiyentning minimal va maksimal chegaraviy miqdorlar intervali ichida yotuvchi etalon miqdorlar aniqlandi;

*to'rtinchi metodika:* 12 ta koeffitsiyentning bir-biriga bog'liqligini ifodalovchi integrallashgan tenglik aniqlandi;

*beshinchi metodika:* umumlashgan mezon (uning modul ko‘rinishidagi shakli) yordamida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (XSBB bo‘yicha) 4 ta moliyaviy sifat holati bo‘yicha reyting baholari aniqlandi;

*oltinchi metodika:* xo‘jalik yurituvchi subyektni logarifmik masshtabda me‘yorlashtirilgan moliyaviy o‘lchami va reyting bahosi asosida uning moliyaviy top-kuchlilikdagi renking o‘rni aniqlandi.

Bunda 3.1.1-rasmdagi model asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlar (XYUS) uchun quyidagi ko‘rinishdagi umumlashgan shartli etalon balans matematik yo‘l bilan topildi:

Umumlashgan shartli etalon balans	
UMA (a) = 57y <sub>1</sub>	XK (c) = 92y <sub>3</sub>
JA (b) = 97y <sub>2</sub>	QM (d) = 62y <sub>4</sub>

Ushbu etalon balansga asosan XYUSning logarifmik masshtabda me‘yorlashtirilgan moliyaviy o‘lchami  $k = \log_{10} \frac{y_1 + y_2 + y_3 + y_4}{4}$  formula asosida quyidagilar yordamida topiladi:  $y_1 = \frac{a_{\text{real}}}{57}$ ,  $y_2 = \frac{b_{\text{real}}}{97}$ ,  $y_3 = \frac{c_{\text{real}}}{92}$ ,  $y_4 = \frac{d_{\text{real}}}{62}$ .

Bunda  $y_1$  – XYUSning (firma, kompaniyaning) uzoq muddatli aktiviga nisbatan logarifmik masshtabda me‘yorlashtirilgan moliyaviy o‘lchami,  $y_2$  – kompaniyaning joriy aktiviga nisbatan logarifmik masshtabda me‘yorlashtirilgan moliyaviy o‘lchami,  $y_3$  – kompaniyaning xususiy kapitaliga nisbatan logarifmik masshtabda me‘yorlashtirilgan moliyaviy o‘lchami,  $y_4$  – kompaniyaning qarz majburiyatlariga nisbatan logarifmik masshtabda me‘yorlashtirilgan moliyaviy o‘lchami. Logarifmik masshtabda me‘yorlashtirilgan moliyaviy o‘lcham  $k > 0$ ,  $k = 0$ ,  $k < 0$  miqdorlarda (ya’ni, mos ravishda, miqdoran: ijobiy (musbat ishoralardagi) darajalarga, minimal zaruriy (chegaraviy) darajaga va salbiy (manfiy ishoralardagi) darajalarga xos sifatda) bo‘lishi mumkin.

Agar solishtirilayotgan XYUSlar bir-biriga nisbatan necha marta katta yoki kichikligini bilish zarur bo‘lsa, ularning real masshtabdagi moliyaviy o‘lchamini ifodalovchi  $10^{m-n}$  formuladan foydalanish (bunda:  $m=k_m$  va  $n=k_n$  ikkita

baholanayotgan XYUSning logarifmik masshtabda me'yorlashtirilgan moliyaviy o'lchami) mumkin.

XYUSlarni logarifmik masshtabda me'yorlashtirilgan moliyaviy o'lchamiga qarab, ularni taqqoslama umumiy bahosini aniqlash uchun logarifmik masshtabda me'yorlashtirilgan moliyaviy o'lchamni renking pog'onalariga bo'lib chiqish mumkin. Bunday har bir pog'onaga tegishli bo'lgan XYUSning egallagan o'rnini aniqlash uchun har bir XYUS(kompaniya)ning renking pog'ona ichidagi moliyaviy reyting bahosidan foydalanamiz. Bu baho quyidagicha aniqlanadi:

$$n = \frac{\text{XYUSning me'yorlashtirilgan moliyaviy o'lchami}}{\text{XYUSning moliyaviy reyting bahosi}}$$

Ushbu formula bo'yicha renking pog'ona ichidagi reyting baho miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, XYUSning moliyaviy holati shunchalik barqaror (sifatli) bo'ladi.

Bunda har qanday XYUSning joriy davrdagi logarifmik masshtabda me'yorlashtirilgan moliyaviy o'lchamini o'tgan davrdagisiga nisbatan o'sishining minimal miqdori quyidagi tengsizlik asosida aniqlanadi:

$$\delta \geq \frac{\lg(1+i)}{k_1} \quad \text{yoki} \quad \delta \geq \lg(1+i)^{\frac{1}{k_1}}$$

Moliyaviy tahlil amaliyotida moliyaviy barqarorlikning barcha iqtisodiy hamjamiyatlar tomonidan istisnosiz qabul qilingan yagona ta'rifga ega emasligi ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi, bu esa ushbu konsepsiyaning noaniqligini va tashkilot moliyaviy barqarorligining ko'plab ta'riflari mavjudligini ko'rsatadi.

